

جدید

2025-yil 25-iyul
№ 30 (82)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

NUQTAYI NAZAR

O'ZBEK KELAYOTIR...

O'zbekiston deganda o'ng qo'lim beixtiyor ko'ksimga qanday ko'tarilganini o'zim ham sezmay qolaman. Ayniqsa, Yangi O'zbekistonning keyingi yillardagi ulkan zafarlarining xush mujdalarini eshitganimda quvonganimdan o'zimni qo'yarga joy topolmayman.



(Davomi 3-sahifada.)

VATAN MANZUMASI

Muhammad YUSUF

IQROR

O, ota makonim.
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam.
Rimni alishmasman bedapoyangga.

Bir go'sha suv bo'lsa, bir go'sha qirlar,
Qancha yurtni ko'rdim, qancha taqdirlar.
Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,
Tog'laring ortimdan ergashib yurar.

Ko'rdim suluvlarning eng faranglarin.
Yo xudbinman, yo bir sodda kasman men –
Parijning eng go'zal restoranlarin
Bitta tandiringga alishmasman men.

Na gapga ko'nayin,
Na til bilayin,
Ko'zdan uyqu qochdi, dildan halovat –
Uch kunda sog'insam nima qilayin,
Chala qolar bo'ldi hamma sayohat.

Bildimki, baridan ulug'im o'zing,
Bildimki, yaqini shu tuproq menga.
Bahorda Baxmalda tug'ilgan qo'zing
Arab ohusidan azizroq menga.

Sen bilan o'tgan har kun bayram-bazm,
Sensiz bir on qolsam vahmim keladi.
Seni bilganlarga qilaman ta'zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

XALQARO HAMKORLIK

“O'ZBEKISTON – OHANRABOLI YURT”

Hindistondagi Javoharlar'l Neru universiteti professori,
turkolog Axlok Ahmad Axan bilan suhbat



– Hurmatli professor, O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi do'stlik aloqalarining yangi bosqichga ko'tarilayotgani ilm-fan sohasida ham ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Sizning misolingizda olsak, so'nggi yillarda yurtimizga tashrifingiz soni ortib bormoqda. Bu quvonarli hol, albatta. Sizni O'zbekiston, o'zbek xalqi tarixini o'rganishga nima ilhomlantirgan?

– O'zbekistonga tez-tez kelishimga ikki sabab bor. Birinchidan, kamina Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ma'naviy merosi hamda Markaziy Osiyo va Hindiston yarimoroli o'rtasidagi ko'p ming yillik madaniy-tarixiy aloqalar ustida izlanishlar olib boraman.

Masalan, buddizm Hindistondan bu yergacha yetib kelgan bo'lsa, keyinroq islom dini aynan Markaziy Osiyo orqali bizning diyorlarda yoyilgan. Shuningdek, bugun bizning yurtimizdagi millionlab odamlar boburiylar davrida yoyilgan naqshbandiya tariqatida bo'lib, ular o'zlari ixlos qiladigan pirlarni dunyoga keltirgan diyor bilan ruhiy bog'liqlikni his qiladi.

O'tmishda Buxoro, Samarqand va Xorazm intellektual inqiloblar markazi sifatida butun jahonda muhim o'rin tutgan. Dunyo taraqqiyotidagi madaniy va ma'naviy evrilishlar aynan shu yerlarda boshlangan. Markaziy Osiyoni tanish uchun mana shu evrilishlar tarixini chuqurroq o'rganish kerak.

(Davomi 5-sahifada.)

TIBBIYOT

“Odam tanasining muhandislik mo'jizasi – umurtqa”, deydi Ilon Mask. Darhaqiqat, umurtqa inson bo'yining to'rtidan birini tashkil etuvchi murakkab tuzilmadir. Abu Ali ibn Sino umurtqaga ozor yetsa odamning jismi ham, ruhi ham aziyat chekishini aytib, har qanday tabib tekshiruvni umurtqadan boshlashi kerakligi bo'yicha ko'rsatma bergan.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda eng keng tarqalgan va tobora yasharayotgan kasallik bu – umurtqalararo disk churrasi.

Umurtqalararo disk churrasi deganda ko'pchilik umurtqa orasida paydo bo'luvchi go'shtsimon o'smani tasavvur etadi. Aslida, bu kasallik umurtqa disklaridagi liliqdoq pulpoz yadro elastik holatining buzilishi oqibatida uning fibroz halqani yorib chiqib, orqa miya kanaliga oqishi bilan yuzaga keladi.



HAYOT YO'LI – QUUVAT MANBAYI

Umurtqalararo disk churrasi ana shu oqib chiqqan pulpoz yadro suyuqligining o'ng yoki chap tomondagi spinal ildizchalarni ezishiga qarab o'sha joydagi tomirlarda tortishish, og'riqlarning hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bemorda doimiy holsizlik, qo'l-oyoq, yelkalarda og'irlashuv, surunkali og'riq holatlari kuzatiladi.

Umurtqa diski churrasi tananing qaysi qismida hosil bo'lsa, joylashgan nuqtasidan pastdagi a'zolar harakatiga ta'sir o'tkazadi, ya'ni o'sha sohadagi mushaklarning spazm – ixtiyorsiz, qisqa muddatli va og'riqli qisqarishiga sabab bo'ladi. Uning kelib chiqishiga asosan kamharakatlik, semirish, travmalar, noqulay holatda og'ir yuk ko'tarish va surunkali shamollash sabab bo'ladi.

Shuningdek, har bir inson umurtqa pog'onasining og'ir yuk ko'tara olishiga va chidamliligi yuqori bo'lishiga qaramay, u ayni shu a'zosi bilan tik ekanligini unutmasligi va salomatligiga jiddiy e'tibor berishi kerak.

(Davomi 3-sahifada.)

TAQDIMOT

“ANOYINING JAYDARI OLMASI” QARDOSHLAR SAHNASIDA

Qozog'istonning Chimkent shahrida yigirma ikki yildan buyon o'zbek drama teatri faoliyat ko'rsatib keladi. Bu ajoyib teatr haqida anchadan beri bilib-eshitib yurgan bo'lsam-da, u yerga borish, spektakllarini tomosha qilish shu chog'gacha nasib qilmagan edi. Yaqinda shu niyatim amalga oshdi.

Chimkentdagi o'zbek drama teatri sahnasida ustoz adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam qalamiga mansub “Anoyining jaydari olmasi” hikoyasi asosida spektakl premyerasi bo'lib o'tdi. Taniqli rejissyor Sayfiddin Meliyev tomonidan sahnalashtirilgan ushbu spektaklga O'zbekiston nomidan muallif boshliq bir guruh ziyolilar taklif etilib, tomosha qilish va fikr bildirish imkoni tug'ildi.

(Davomi 6-sahifada.)



KELAJAK OVOZI



KUTUBXONA – BIRNIKI, MANFAAT – MINGNIKI

Prezidentimiz tashabbusi bilan mutolaa madaniyatini yangi bosqichga olib chiqish harakati boshlanganiga sakkiz yil to'lmoqda. O'tgan vaqt mobaynida tizimli islohotlar samara berib, yurtimizda kitobxonlar safi kengaydi, kitoblar soni bilan birga sifati ham ortdi. Nashriyotlar va bosmaxonalar o'rtasida sog'lom raqobat muhiti shakllandi. O'z navbatida kitob savdosi bilan shug'ullanayotganlarga qator imtiyozlar ham berildi.

Bu o'zgarishlar tadbirkorlarni ham befarq qoldirgani yo'q, albatta. Berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yurtdoshlarimizdan urganchlik ota-o'g'il Abdullayevlarning sa'y-harakati ayniqsa, tahsinga sazovor.

Yashirib nima qilamiz, savdo-sotiq sohasiga kirib kelayotgan aksar tadbirkorlar ishni oziq-ovqat do'konidan boshlashga harakat qiladi. Biladi-da, tirik jon kuniga uch marta ovqatlanishga majbur.

(Davomi 4-sahifada.)



GURUNG

– Keling, suhbatimizni xotiralar-dan boshlab, talabalik yillaringizga nazar tashlasak. O'sha paytda siz yarimo'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi sohasini tanlagan ekansiz.

– Fizikaga bolalikdan qiziqqanman. Tabiiy fanlarga ishtiyoqim bandligi tufayli 1963-yili Toshkent davlat universitetining fizika fakultetiga hujjat topshirganman. U paytlarda o'qishning ikkinchi bosqichidan so'ng harbiy xizmatga chaqirishardi. Ko'p qatori men ham askarlikka olinib, Vengriyaga jo'nab ketganman.

Uch yillik xizmat men uchun faqatgina harbiy tayyorgarlik emas, balki shaxsiy rivojlanish, irodaviy va ruhiy toblanish davri ham o'tadi. Bu tajriba menga hayotning turli sinovlariga tayyor turishni o'rgatdi. Shundan so'ng ta'lim va ilmiy izlanishlarga yondashuvimda sezilarli o'zgarish kuzatildi: masalalarga yanada puxta, maqsadli va mas'uliyat



bilan yondasha boshladim.

Universitetdagi o'quv rejaiga ko'ra, talabalar ikkinchi kursdan so'ng ixtisosliklar bo'yicha yo'naltirilardi. O'sha yillarda dunyo bo'ylab yarimo'tkazgich texnologiyalari, mikro-elektronika va nanofizika sohalari jadal rivojlanib borayotgan edi. Bu global jarayonlar mamlakatimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi, albatta. O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi va texnikasi bo'yicha ilmiy faoliyat keng yo'lga qo'yilib, yangi texnologiyalar ishlab chiqarishga tatbiq etila boshlagan, ilmiy-ta'limiy infratuzilma rivojlanayotgan davr edi.

Poytaxtimizda faoliyat yuritayotgan elektron texnika yo'nalishidagi ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ko'plab yetuk olimlar, muhandis-mutaxassislar mehnat qilardi. Ana shunday ilmiy muhitda ko'plab yoshlar qatori men ham ushbu sohaga qiziqib qoldim va kelgusidagi ilmiy izlanishlarimni yarimo'tkazgichlar fizikasiga bag'ishlashga qaror qildim.

Bu yo'lda menga jiddiy ta'sir ko'rsatgan inson – universitetdagi ustozim, professor Alisher Teshaboyev bo'ldi.

U kishi nafaqat bilimli mutaxassis, balki haqiqiy ilmiy tashabbuskor shaxs edi. Uning sa'y-harakatlari bilan fakultetda yarimo'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi kafedrasini tashkil etildi. Shu bilan birga, professor Teshaboyev xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, nufuzli xorijiy ilmiy markazlar va olimlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish borasida ham ulkan yutuqlarga erishdi. Uning ilmiy mehnati va inson sifatidagi fidoyiligi men uchun o'ziga xos hayot maktabi vazifasini o'tadi.

– Siz yoshlikdayoq o'z sohasining yetakchi olimlari, professorlari bilan yelkadosh bo'ldi.

O'sha yoshlar orasidan keyinchalik yuqori malakali mutaxassis olimlar, jumladan, akademiklar Muhammad Kabir Bahodirxonov, Abdug'afur Mamadaliyev va boshqa ko'plab ko'zga ko'ringan fan arboblari yetishib chiqdi. Ular qatorida davlat mukofoti laureatlari, fan va ishlab chiqarish sohasi rahbarlari ham bor edi.

Bunday ilmiy izlanishlar mamlakatimizda fan va ta'lim sohasida jiddiy ilgarihlashga turtki berdi. Xususan, O'zbekistonda yirik ilm-fan markazlari va ixtisoslashgan maktablar tashkil etildi. Toshkent davlat universitetida amalga oshirilgan yarimo'tkazgichli kremniyning kompensatsiyalash bo'yicha tadqiqotlar xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan yuksak baholandi.

Bu ilmiy yutuqlar asosida Toshkentda "Yarimo'tkazgichlarda chuqur holatli kirishma atomlari holatlari" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Ushbu anjuman yosh olimlarning chet ellik hamkasblari bilan hamkorligini mustahkamlab, fan va ta'lim jarayonlariga yangi sur'at bag'ishladi. Natijada ko'plab tadqiqotchilar fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajalarini muvaffaqiyatli himoya qilishdi. O'nga yaqin olimlar qatorida men ham Abu Rayhon Beruniy nomidagi davlat mukofotiga munosib ko'rildim. Shuningdek, soha bo'yicha monografiyalar, darsliklar va yuzlab ilmiy maqolalarimiz chop etildi.

– Domla, yuqoridagi ilmiy nashrlar masalasiga to'xtaladingiz. Sizni sohaga oid ko'plab darslik va qo'llanmalar muallifi sifatida ham yaxshi bilamiz. "Nanotexnologiyalar va mikro-elektronikadan inglizcha-ruscha o'zbekcha lug'at" ham tuzgansiz. Bunday sohasiy lug'atlarni tuzishning ilm-fan rivojidagi ahamiyati haqida to'xtalsangiz.

– Kitoblar yozish, ayniqsa, o'zbek tilidagi o'quv adabiyotlarini yaratish ilm-fan rivojida va fikr almashuvida beqiyos ahamiyatga ega. Ayniqsa, lug'atlar fanning til orqali ommalashishi, anglashilishi va o'zlashtirilishiga xizmat qiladigan muhim vosita. Masalan, inglizcha yoki ruscha ilmiy adabiyotlarni o'zlashtirish jarayonida ko'pchilik talabalar aynan sohasiy atamalarga tushunishda qiynaladi.

Shu nuqtayi nazardan, biz tayyorlagan lug'at-manbalar talabalar, muhandislar, tadqiqotchilar, hatto murabbiylar uchun ham ishonchli qo'llanma vazifasini o'taydi. Bu kabi lug'atlar orqali atamalar tarjimasini, ularning konteksti, ifoda tarzi va ilmiy mohiyati ham o'zbek tilida aks etadi.

Bu faqat til masalasi emas, bu ilmiy xalqqa yaqinlashtirish, o'zbek tilini fan tili sifatida shakllantirish, yosh avlodga mustahkam bilim asosini berish demakdir. Shu bois, fizika va texnik fanlari yo'nalishida shunday lug'atlar yaratishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Umuman, bugungi kunda o'zbek tilida o'quv adabiyotlarini yaratish masalasi o'ta ahamiyatli, dolzarb vazifalardan biridir. Aniq fanlar kesimida, xususan, fizika sohasida

ham ruscha – o'zbekcha, inglizcha – o'zbekcha lug'atlar va izohli atamalar to'plamlariga ehtiyoj ortib borayotir. Bu hayotiy zaruratga aylangan.

Shu bois fiziklarimiz, akademiklarimiz bu masalaga jiddiy e'tibor qaratmoqda. O'z sohalaridagi muhim tushuncha va atamalarni ona tilimizga mos ravishda tarjima qilish, tizimli lug'atlar yaratish orqali ular til rivojiga, fanning ommalashuviga xizmat qilyapti. Yaratilgan lug'atlar ilmiy jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Bugungi kunda mazkur manbalar asosida qator darslik, qo'llanma, ilmiy maqolalar tayyorlandi.

Aytish joiz, shu paytgacha o'zbek tilidagi adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha yarimo'tkazgichlar va qattiq jismlar fizikasi yo'nalishi respublikada yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Bu milliy yutuq bo'lish barobarida, xalqaro e'tirofning ham asosidir. Bugun o'zbekistonlik olimlar xalqaro ilmiy tadqiqotlarda faol ishtirok etmoqda, ularning yutuqlari turli nufuzli akademik tashkilotlar tomonidan tan olinayotir.

Men ham bir qator xalqaro akademiyalar, jumladan, AQShning Fan, ta'lim, texnika va texnologiya akademiyasi, Angliyaning Umumjahon biografik markazi, Gruziyaning Ta'lim va turizm akademiyasi, Moskvadagi Oliy ta'lim bo'yicha xalqaro akademiyaning a'zosi sifatida faoliyat yuritib kelyapman. Bu kabi e'tiroflar zamirida, albatta, yurtimizda ilgama qaratilayotgan yuksak e'tibor va ustozlarimizning ta'lim-tarbiyasi yotadi. Yuzlab maqolalarim dunyo miqyosidagi nufuzli jurnallarda chop etilganida doim mana shu yurt farzandi ekanimdan faxr tuyaman.

– Siz uzoq yillar davomida O'zbekiston Fanlar akademiyasining Andijon-Namangan ilmiy markazi rahbari sifatida faoliyat yuritgansiz. Ma'lumki, hududlardagi ilmiy muhit va salohiyat bevosita shu kabi markazlar orqali shakllanadi. Ayting-chi, viloyatlardagi bunday markazlar faoliyatini yanada samarali qilish, ularning ta'sir doirasini kengaytirish uchun ko'proq nimalarga e'tibor qaratish kerak?

– 1992-yilda akademik Po'lat Habibullayev tashabbusi va rahbarligi ostida O'zbekiston fizika jamiyatini tashkil etgan edik. Bu – fizika fani va ta'limi rivojida muhim voqea bo'ldi. Jamiyatning asosiy maqsadi sohada erishilayotgan ilmiy yutuqlarni keng targ'ib qilish, yetakchi olimlarimizni ommaga tanitish, shuningdek, ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar va ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar faoliyatini ilmiy markazlar bilan integratsiyalashdan iborat edi. Shuningdek, xalqaro aloqalarni kuchaytirish, ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish ham muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Jamiyat o'z faoliyatining dastlabki o'n yilida aynan shu yo'nalishlarda sezilarli yutuqlarga erishdi.

Adashmasam, bundan chorak asr oldin professor hammaslalarim Mo'ydinjon Mo'minov va Rustamjon Rasulov bilan Farg'ona vodiysidagi dolzarb muammolarga olimlarning e'tiborini qaratish masalasida o'zaro kengashdik. Keyinchalik Fanlar akademiyasining Andijon, Namangan va Farg'ona filiallari tashkil etilishiga turtki bo'lgan o'sha suhbatlarimiz, sa'y-harakatlarimiz xayrli natijalarga asos bo'ldi. Bu markazlarda hududlarda yuzaga kelgan masalalar, jumladan, energiya tanqisligi, tut parvonasi, qishloq xo'jaligiga zarur yetkazuvchi hasharot va kalamushlarga qarshi kurash kabi ko'plab muammolar ilmiy asosda o'rganilib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur filiallarda faqatgina ilmiy tadqiqot bilan cheklanib qolmasdan, bir necha bor ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi, iqtidorli talabalar va yosh izlanuvchilar yirik markazlarga, taniqli olimlar qo'lida o'qish va stajirovka uchun yuborildi. Bu ishlar hududda ilmiy muhitni shakllantirishga xizmat qildi.

Shu jihatdan qaralsa, hududlarda bunday ilmiy markazlarning bo'lishi, bo'lganda ham poytaxt darajasida zarur texnik vositalar bilan ta'minlanishi nihoyatda muhim, deb o'ylayman.

Ayni paytda viloyatlardagi filiallar faoliyatini tubdan kuchaytirish, ularga zamonaviy laboratoriyalar va uskunalar ajratish hamda markazda faoliyat yuritayotgan malakali olim va mutaxassislarni rotatsiya asosida o'sha maskanlarga yuborish amaliyoti takomillashtirish kerak.

– Ilmiy faoliyatingiz jahon miqyosida e'tirof etilgan. Shogirdlaringiz orasida ham izingizdan borib, xalqaro yutuqlarga erishganlari bor, albatta. Ular haqida ham to'xtalib o'tsangiz.

– Ha, ular juda ko'p. Har birining o'z o'rni, o'z yutug'i bor. Shuning uchun faqat bir-ikkisini eslab, qolganlarining ismini keltirib o'tmasam, o'ylaymanki, mendan ranjishmaydi. Muhimi, faxr bilan ayta olamanki, har bir shogirdim yuksak natijalarga erishib, fan va jamiyat rivojiga beminnat hissa qo'shib kelmoqda.

Ular orasida fizika-matematika fanlari doktorlari, professorlar yetishib chiqqan. Shulardan biri – Odiljon Mamatkariyev. U nafaqat yirik olim, balki O'zbekiston Milliy universiteti va Namangan texnologiya universitetiga uzoq yillar rahbarlik qilgan, hozir Oliy Majlis Senatida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti direktori, professor Sharifa O'tamurodova, Moskva energetika institutining Toshkent filiali rahbari, professor Hojiakbar Daliyev ham yetuk shogirdlarimdan.

Yosh, salohiyatli olimlarimizdan Ibrohimjon Karimov, Shahriyor Yo'ichiye, Nozimjon Turgh'unov, Akromjon Boboyev kabi fan doktorlari ta'lim sohasida siddiqdildan xizmat qilib kelyapti. Shuningdek, Jahongir Usmonov, Xushroy Mahmudov,



Hotamjon Mansurov, Xurshidjon Madaminov, Nuriddin Yunusaliyev, Biloliddin Ergashev, Baxtiyor G'ulomov ham yangi ixtiro va innovatsion loyihalar ustida samarali ishlamoqda.

Men ishonaman, ularning har biri fanimizning ilmiy an'analari munosib davom ettirib, yarimo'tkazgichlar fizikasining sir-asrorlarini yanada chuqur o'rganadi va kelajakda yanada salmoqli natijalarga erishadi.

Albatta, bu soha oson emas. Yarimo'tkazgichlar fizikasi sohasi bilan shug'ullanish yuqori texnologik uskunalar, aniq tajribalar, keng nazariy bilim va malakani talab etadi. Bunday sharoitlar poytaxtimizdagi yirik ilmiy markazlarda mavjud.

Yaxshi tomoni shundaki, so'nggi yillarda yurtimizda ham bu borada sezilarli qadamlar tashlandi. Davlatimiz rahbarining tegishli qarorlariga binoan viloyatlardagi universitetlarga zamonaviy laboratoriya uskunalari xarid qilindi. Andijon davlat universitetining fizika fakulteti ham bu jarayondan chetda qolmadi. Bugungi kunda bizning laboratoriyamizda atomkuch mikroskopi, rentgenstrukturaviy spektrometr, metalloksid modda olish quurilmalari va zamonaviy kompyuterlar mavjud. Ular orqali davlat buyurtmalari asosida bir necha loyihalar ustida tadqiqot olib boryapmiz.

– Poytaxtdan yiroqda yashab, ilm bilan shug'ullanishning o'ziga yarasha zahmati bo'lsa kerak?

– To'g'ri, yaqin vaqtlargacha imkoniyat va sharoit borasida Markaz hamisha oldinda bo'lgan. Biroq bugun hududlarda ham poytaxtimizdagidan kam bo'lmagan darajada sharoitlar hozirlanganiki, bularni ko'rib amalga oshirilayotgan islohotlar uchun tahsin aytgink keladi. Shukur, viloyat ilmiy markazlarida ham tadqiqot ishlari samarali davom etayotir. Savolingizga javoban bir hayotiy haqiqatni aytay: ashlida imkoniyat va sharoitning cheklangani olimni yanada kuchli qiladi. Shu ma'noda, poytaxtdan uzoqda yashab, ilm qilishning o'ziga yarasha mashaqqati bilan birga zavqli, sharaflil tomonlari ham bor. Ilm – fidoyilik degani. Ilmning avvali – ishtiyoq. Fanni o'rganish uchun sharoitdan ko'ra ko'proq shunisi zarur. Negaki, qiziqish va ishtiyoq fidoyilikka aylanmaguncha siz to'la ma'noda ilm odami bo'lmaysiz. Men yoshlar bilan suhbatlashganimda ular ana shu ishtiyoqning bor yoki yo'qligiga qiziqaman.

Fursatdan foydalanib, mamlakatimiz yoshlariga qarata, ilm-fanga bo'lgan ishtiyoqni aslo so'ndirmang, demoqchiman. Chunki yurt ravnaqi ilgama qanchalik bog'liq bo'lsa, fan rivoji ham olimlarning iqtidor-u ishtiyoqiga shunchalar bog'liq.

Dilmurod DO'STBEKOV suhbatlashdi.



“Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur.

Abdulla AVLONIY

KELAJAK OVOZI

“PREZIDENTIMIZGA VA'DA BERGANMAN!”

Abdulloh Jamoliddinov, yosh ixtirochi:

– Bu yil Yoshlar kunida Prezidentimiz bir guruh iqtidorli va ixtirochi yoshlar bilan uchrashdi. Unda men ham "Aqlli tomorqa" loyihasi bilan ishtirok etdim. Loyiham ekin maydonining tuproq namligini o'lchab, avtomatik tarzda sug'orib berishga ixtisoslashtirilgan. Natijada, bir tomchi ham ortiqcha suv isrof bo'lmaydi. Butun dunyoda qurg'oqchilik xavfi yildan-yilga oshib borayotgan bir paytda suvni tejashga kichik hissamni qo'shishni istadim.

Yurtboshimiz loyihamni ijobiy baholadi. Ishimni e'tirof etib, shu

zaylda davom etishimni ta'kidladi. Men ham Prezidentimizga yangi-yangi loyihalarni hayotga tatbiq etish haqida va'da berdim. Hozir shu va'damning ustidan chiqish harakatidaman.

Bundan avval "Foydali ixtirolar" loyihasida qatnashib, sovrindor bo'lganman. Bolaligimdan elektronikaga qiziqaman. O'yinchoqlarning ichini ochib, ularning qanday ishlashini o'rganardim. O'zim ham turli qismlardan yangi o'yinchoqlar yasashga harakat qilardim. Otanam, ustozlarim, Yoshlar ishlari agentligi vakillari yordami bilan bilimimni oshirib, loyihalarimni tako-

millashtirib boryapman.

Robototexnika va dasturchilikni teng olib ketishga harakat qilyapman. Ikkalasi o'zaro chambarchas bog'liq.

To'g'risi, nogironlar aravachasida yurganim uchun ko'pchilikka qo'shishni istamasdim. Erta-yu kech uyda qamalib o'tirardim. Telefon, internet tarmoqlari asosiy ermagim edi. Keyin o'zimga o'xshagan tengdoshlarimning katta-katta ishlarga qo'l urayotganini ko'rib, kuzatib havasim keldi. Shunday qilib, qiziqishim bo'yicha olti oylik o'quv kurslariga qatnab boshladim. Natijasi, ko'rib turganingizdek, yomon emas.

Jyul Vernning "O'n besh yoshli kapitan" romani bor. Asar qahramoni bo'lmish o'smir tengdoshim katta kemani boshqarib, ekipajni qarog'chilar changalidan sog'omon olib chiqib ketadi. Men ham o'n besh yoshdan o'tib, o'n oltiga qadam qo'ymoqdaman. Garchi kema kapitani bo'la olmasam ham, ixtirolar dengiziga sho'ng'ib, eng sara durlarni termochimam.

Kelajakda o'quv markazi ochib, unda robototexnika, IT va boshqa yo'nalishlarni uka-singillarimga o'rgatmoqchiman.

Abbosbek SHOYIMOV yozib oldi.



Boshlanishi 1-sahifada.

Aslida, kamtarin ijodim namunasi bo'lgan “O'zbek kelayotir...” balladasi bir paytlar “o'zbek ishi”ni uyushtirganlarga javob o'laroq yozilgan. She'r ulug' o'zbek tarixining tarannumi bilan boshlansa-da, keyingi davrda Yangi O'zbekiston zafarlarining ilhomboxsh kuch-qudrati tasviri bilan bandma-band ko'payib, kengayib borgan. Siz-u bizga yaxshi tanish bo'lgan “Vatan” jurnalida mazkur balladaning ixchamroq varianti aks etgan, xolos. Asarning nisbatan to'liq nusxasi yaqinda o'zbek tilida nashr etilgan kitobimga kiritilgan. Men “Vatan” jurnalining ijodiy jamoasidan minnatdorman, aynan shu jurnal orqali “O'zbek kelayotir...” adabiy davralarda keng tarqaldi.

Esimda bor, jurnal muqovasida Prezident Shavkat Mirziyoyevning surati, shuningdek, mening she'rimdan parcha berilganini ko'rib, o'zimda yo'q sevinib ketganman. Keyinroq Oliy Majlis Senati a'zosi, jurnal bosh muharriri Husan Ermatov bilan uchrashdim. O'zaro suhbat chog'ida “Mening Prezidentim” va “Millatparvar” asarlarini ozarbayjon tiliga o'girish fikri tug'ildi. Aynan o'sha lahza “Shavkat Mirziyoyev fenomeni” kitobi dunyoga kelishi uchun asos bo'ldi.

O'zim Ozarbayjonda tug'ilib-o'sganim, hozir unda yashayotganimga qaramay, hayotimning katta qismi, xususan, ayni kuchga to'lgan yigitlik yillarim qadrdon



bir joyda jamlash, ularni nafis so'z san'atiga oshno etish, mutafakkir bobolar qoldirgan boy ilmiy merosni o'rgatish, zamonaviy ta'limning ilg'or yutuqlaridan bahramand etishga qaratilgan xayrli ishlarining amaldagi isboti ham ana shu ta'lim maskanlaridir.

Bundan tashqari, Yozuvchilar uyushmasining muhtasham yangi binosi, uning atrofiga bunyod etilgan Adiblar xiyoboni, unda turkiy adabiyotning yirik

Umuman olganda, O'zbekiston va Ozarbayjon adabiy, ma'rifiy, siyosiy do'stligi kechagina boshlanib qolgan hodisa emas, uning ildizlari chuqur. Bu aloqalar asrlar davomida shakllanib, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy asarlari hamda ikki xalqning fuzuliyxonlik, mashrabxonlik kechalari bilan yanada mustahkamlangan. Bu orada Bokuda o'zbek san'ati va madaniyati, Toshkentda Ozarbayjon kino va adabiyoti

O'ZBEK KELAYOTIR...

o'zbek diyorida o'tgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, O'zbekistonga aloqador yangiliklarni diqqat bilan kuzatib boraman. Ayniqsa, so'nggi yillarda Respublikada yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarni butun dunyo e'tirof etmoqda. Niyatim – Ozarbayjon xalqini o'zbek adabiyoti bilan yaqindan tanishtirish barobarida shu yurtning muhim siyosiy yutuqlarini ta'kidlash, targ'ib qilish. Yuqorida nomlari keltirilgan asarlar ayni yangiliklarni xuddi ko'zgudek aks ettiradi. “Mening Prezidentim”ni bir necha marta o'qib, har gal xayolga cho'mardim. Mutolaadan ta'sirlangan holda, kitobni filologiya fanlari doktori, professor Yashar Qosimga yubordim. U kishi ham O'zbekistonda yashagan. Har gal ko'rishganda shu jannatmonand zaminda kechgan yoshligimiz, ustozlarimiz va do'stlarimizni eslaymiz. Yangi O'zbekistonning yutuqlaridan quvonamiz.

Hech yodimdan chiqmaydi, 2024-yilning 12-noyabrda qo'ng'iroq qilishib: “Tayyor bo'lib turing, O'zbekiston Prezidenti, muhtaram Shavkat Mirziyoyev ertaga soat 10:00 da Boku shahrida o'ziga ajratilgan qarorgohda sizni qabul qiladi”, deyishdi. Xushxabardan boshim osmonga yetdi. Bir so'z bilan aytganda, o'sha hayajonli voqea hayotimning eng unutilmas hodisasi-ga aylanib qoldi. Biroq shu qabulning tafsilotlarini yoki o'sha uchrashuvdan olingan barcha taassurotlarni bir suhbatga yoxud bir esdalikka aslo sig'dirib bo'lmaydi. Bu haqda keyinroq batafsil yozish niyatim bor.

Ozarbayjonda qo'lga qalam olgan teng-to'shlarim bo'ladimi yoki yosh ijodkorlar bo'ladimi, yig'ilib qolsak, suhbat o'z-o'zidan Yangi O'zbekistonda oxirgi yillarda amalga oshirilgan ezgu ishlar haqida boradi. Ular orasida ijod maktablarining ochilgani alohida, aytib, ado qilib bo'lmaz mavzu hisoblanadi. Bir paytlari o'zim yonida yurgan, ozmi-ko'pmi, ijodiy maktabidan bahra olgan ulug' adiblar nomiga maktab ochilishini eshitib, to'liqlanib ketganman. Nafakat o'zbek, balki butun turkiy adabiyot uchun sevimli bo'lgan Ogahiy, Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ijodkorlar izidan borishga intilgan yoshlarni

namoyandalari siymosida qad rostlagan haykallar, Do'rmon ijod bog'ining qayta ta'mirlanishi, qalam ahlining erkin va qulay ijod qilishi, o'z navbatida maroqli hordiq chiqarishi uchun Zarkent ijod uyining qurilishi, Zomin sanatoriyasidan ijodkorlarga qo'shimcha o'rinalar ajratilishi, har yilgi an'anaviy tarzda yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Zomin seminarining tashkil etilishi kabi havas qilsa arziydigan ishlar, ochig'ini aytish kerak, uncha-muncha davlatda yo'q.

O'zbek xalqining maorifi, adabiyoti, san'ati, kelajak avlodning erkin va hurfikrlari bo'lishi, ozod yashashi, hech kimdan kam bo'lmisligi uchun kurashgan jaded bobolarga hurmat va ehtiromni aytmaysizmi! Ular haqida filmlar ishlash, haykallar o'rnatish, maktablar ochish, grantlar ajratish, bebaho asarlarini qayta-qayta chop etish ishlari kundan kunga jadal tus olib boryapti. Bu esa, O'zbekistonda o'ttiz yil yashagan, qardoshlar hayotini o'zgacha ishtiyoq bilan muntazam kuzatib boradigan kaminani quvontirdi, albatta.

O'rni kelganda aytish kerakki, Tog'li Qorabog'ning tiklanishiga birinchi sovg'a O'zbekiston tomonidan berilgan. Muhtaram Shavkat Mirziyoyev 2021-yilning aprelida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining videokonferensiya shaklida o'tkazilgan norasmiy sammitida O'zbekiston uzoq yillar davom etgan qamaldan ozod etilgan tuproqlarimizda ko'hna obidalar, madaniyat va ma'rifat maskanlarini tiklash ishlari-ga hissa qo'shishga tayyorligini bildirgandi. 2023-yilning avgustida Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga tashrifining ikkinchi kunida ikki davlat rahbarlari Fuzuliy shahriga tashrif buyurib, o'zbek xalqining buyuk farzandi Mirzo Ulug'bek nomini olgan 960 o'rinni maktabning tantanali ochilish marosimida ishtirok etgandi. Bu xabarni o'qigan yoki eshitgan kishida savol tug'ilishi tabiiy: O'zbekiston hukumati qardosh o'liklarga yordam berishni nega maktab qurishdan boshladi? Chunki o'zbek xalqi azaldan ilm-u ma'rifatni, adabiyot va san'atni qadrlab kelgan. Fuzuliyda ochilgan maktab ham ushbu ezgu an'ananing davomi desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

kunlari o'tkazilgani ham alohida e'tiborga molik hodisa. Juda yaxshi eslayman, 2018-yil 14-dekabr kuni Toshkentda, 21-dekabr kuni esa Bokuda o'zbek dramaturgiyasining zabardast vakili, tarjimon, ustoz, Ozarbayjonning mashhur farzandi Maqsud Shayxzoda tavalludining 110 yilligi munosabati bilan ilmiy anjuman, shuningdek, Ozarbayjon Madaniyat Markazi loyihasi bilan tayyorlangan, Maqsud Shayxzodaga bag'ishlangan “Ikki xalq iftixori” nomli hujjatli film, “O'zbek she'riyati gulchambari” kitobi taqdimoti bo'lib o'tgandi. Undan ko'p o'tmay, Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi loyihasi bilan O'zbekistonda ikki xalq o'rtasidagi madaniy-adabiy aloqalarga bag'ishlangan “Azaliy do'stlik rishtalari” hujjatli filmi taqdim etilgandi. Xullas, ana shu ezgu an'anani davom ettirish, ikki xalq madaniy aloqalarini mustahkamlash uchun kamtarin ijodim bilan ko'prik bo'lishni muqaddas burchim deb bilaman va so'zimni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qabulida faxr ila o'qigan she'rimdan parcha keltirish bilan yakunlayman:

**Asriy orzularning avjiga yetgan,
Nahanglar diqqatin o'zga qaratgan,
Ne baxtki, jahonning**
bosh minbaridan
**Nutqini jonajon tilda yangratgan
O'zbek kelayotir tarix qa'ridan!**

**Shavkatini tiklab buyuk Turonning,
Avlodlar komida mujassam jonning,
O'z davlati bilan porlab safidan
Turkiston, Turkiya, Ozarbayjonning,
O'zbek kelayotir tarix qa'ridan!**

**Yo'l bo'shat, dillarda muzlagan armon,
Yo'l bo'shat, mensimay**
xor qilgan nodon!
**Yangi mingyillikning tongotaridan
Yo'l bo'shat, zamona,**
yo'l bo'shat, jahon!–
O'zbek kelayotir tarix qa'ridan!!!

**Akif AZALP,
shoir, adabiyotshunos**



Parkent tumanidagi “Zarkent” ijod uyi.

HAYOT YO'LI – QUVVAT MANBAYI

Boshlanishi 1-sahifada.

– Umurtqalararo disk churrasi bemor o'zini o'zi davolasa ham bo'ladigan kasallik, – deydi Respublika nogironlarni reabilitatsiya qilish markazi bo'lim mudiri, oliy toifali travmatolog-ortoped Dilmurod Ro'ziboyev. – Uning keng tarqalgan deyilishiga sabab, bemorlarning ko'payib ketayotganidan emas, balki diagnostikaning yanada takomillashgani sabab kasallikni erta aniqlash imkoniyati paydo bo'layotganidadir. Buning uchun respublikamizga zamonaviy apparatlar keltirilmoqda. Ilgari tashxis qo'yish uchun qo'shimcha rentgen tekshiruvi o'tkazilgan. Unda orqa miya kanaliga kontrast modda jo'natilgan, lekin jarayon murakkab kechgani uchun bu usul kam qo'llanilgan, aniq diagnoz qo'yish ham qiyin bo'lgan. Endilikda har bitta hududda MRT apparati mutaxassislar ishini yengillashtirib, kasallikni erta aniqlash imkonini beryapti. Quvonarlisi, bemorni mumkin qadar jarrohlik stolgacha olib bormaslik choralari ko'rilmogda.

Umurtqalararo disk churrasi kasalligining “yasharishiga” kelsak, asosan jismoniy faollik sustligidan kelib chiqyapti. Yoshlar stolda to'g'ri o'tirish, tanani monitor qarshisida qay holatda tutish haqidagi oddiy tavsiyalarni ham bilmaydi. Soatlab kompyuter, noutbuk, telefon bilan mashg'ul bo'ladi. Bir joyda qadaliib o'tirish tana og'irligining umurtqaga muntazam tushishiga olib keladi va kasallik rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Bemorlarning o'rtaacha 3-10 foiziga jarrohlik amaliyoti o'tkazishga tavsiya berilmoqda. Bel sohasidagi umurtqalararo disk churrasi 7 millimetr kattalikni berganida, bo'yin sohasida 4 millimetrga yetganda operatsiyaga yo'naltiriladi. Shunda ham bu nisbiy hisoblanib, orqa miya kanalining kenglik darajasiga qaraladi. Chunki har bir odamning anatomik tuzilishi o'ziga xos.

Jarrohlik amaliyotidan qo'rqib, vaqtini o'tkazib yuborish kerak emas. Zamonaviy tibbiyotda davolashning tez va oson usullari joriy etilmogda.



Bugun har qanday kattalikdagi umurtqalararo disk churrasini 3 millimetrl qisqichlar yordamida minimal invaziv usul bilan umurtqa pog'onasining butunligi va mustahkamligiga ziyon yetkazmay, yumshoq to'qima (mushak, nerv, fatsiya, paylarni zararlamagan holda olib tashlash mumkin. Bemor terisi atigi 8 millimetr kesiladi. Jarayon 25 martagacha kattalashtirib ko'rsatuvchi kameralar bilan nazorat qilinadi va bu operatsiyaning o'ta aniqlik bilan bajarilishini ta'minlaydi.

Tib tarixidagi ilk amaliyotlarda umurtqa pog'onasining ba'zi qismlari to'liq olib tashlangan. Bemor qorinni yerga bergan holda uch oylab yotqizib qo'yilgan. Keyin ham u yurishga qiynalgani uchun korsetdan doimiy foydalangan. Ammo bu usullar ortda qoldi.

– O'zbekistonga Yaponiya granti asosida olib kelingan zamonaviy endoskop apparat asosida umurtqa diski churrasini teshib olish operatsiyasi 2010-yilda ilk bor bizning markazda amalga oshirilgan, – deydi Dilmurod Ro'ziboyev. – Hozir har bir viloyatda bunday apparat bor. Bunday operatsiyalar soni ochiq jarrohlik yo'li bilan qilinadigan amaliyotlardan 2-3 baravarga ko'paydi. Shuningdek, asab ildizlariga yaqin joydagi kichkina hajmli osteoxondrozli umurtqa churrallarini mayda ninalar bilan lazerda kuydirib, uning elastikligini oshirish imkoniyati ham yaratilgan. Faqat bu usul osteoxondrozning dastlabki bosqichlarida, ya'ni pulpoz yadro hali oqib chiqmagan vaziyatlarda amalga oshiriladi.

Afsuski, xalqimiz karakteridan kelib chiqsak, bemorlar boshlang'ich og'riqlarni e'tiborsiz qoldiradi, soxta tabiblarga murojaat qiladi, o'zboshimchalik bilan dori-darmon qo'llaydi.



Kasallik rivojlanib ketganidan keyingina shifokorga murojaat qiladi. Agar mana shu operatsiya turi ommalashsa edi, biz kasallikni birinchi bosqichidayoq bartaraf etishga erishar edik.

Ochib qilinadigan operatsiyalar natijasida uzoq yotib qolgan bemorlarning mehnatga layoqati pasayib, potensial nogironlar hisobiga kirar edi. Endoskop operatsiyalarning yana bir afzallik tarafi ular nogironlik darajasiga bormay tuzalib, ish jarayoniga qaytishmogda. Bemorga operatsiyadan so'ng shu kunning o'zidayoq harakatlanishga ruxsat beriladi.

Bemorlarning ko'r-ko'rona har xil tabiblarga borib, ular tavsiya qilayotgan oyoqdan osish, umurtqaga zarb bilan urish va cho'zish kabi muolajalarga rozilik berishi ilmsizlik mahsulidir. Bu judayam xavfli bo'lib, odam bir umrga nogiron bo'lib qolishi hech gap emas. Aslida yuqoridagi muolajalar davolash tajribasida avvaldan bor. Faqat jarayon zamonaviy tibbiyot maskanlarida maxsus traksion – umurtqani



elektron tortish apparatlari yordamida bajarilishi kerak. Shifokor nazoratidagi bu kabi tortish jarayonida spazm bo'lib qotib qolgan pay va mushaklarni yumshatib beradi, mushaklar bir tortib, bir joyiga qaytarilib tonusni ochib beradi.

Churraning olib tashlanishi osteoxondroz kasalligini davolamasligini eslatib o'tish joiz. Uning shatini yaxshilash esa bemorning o'ziga bog'liq.

Dilmurod Ro'ziboyev bergan ma'lumotga ko'ra, Respublika nogironlarni reabilitatsiya qilish markazida yiliga ikki mingga yaqin bemor umurtqa diski churrasi xastaligidan shifo topadi. Shulardan 45 foizida jarrohlik amaliyoti o'tkaziladi. 500 nafaridan oshig'iga konservativ muolaja qilinadi.

Bu yutuqlarning ortida Davlat rahbarining sog'liqni saqlash sohasini takomillash-tirish, tizimni raqamlashtirishga qaratilgan islohotlari turibdi. O'zgarishlar shifokorlar ishini yengillashtirsa, bemorlarning ishonchi ortishiga sabab bo'lmoqda. Yil yakuniga qadar barcha hududlarning raqamli tibbiyotga o'tishi rejalashtirilgan. Bu umurtqa disk churrasi bilan og'rigan bemorlarni ham tibbiy nazoratga olish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Shifokorlar bir haqiqatni takrorlashdan aslo charchamaydi: kasallikni davolagandan ko'ra oldini olgan afzal. Tananing bir soatlik yoki bir kunlik bezovtaligi asorati odamda haftalab, oylab ketmasligi mumkin. Shuning uchun sog'lom yurgan chog'larda ham tibbiy ko'rikdan o'tishni kanda qilmaslik, shifokorlar ko'rsatmasiga beparvo qaramaslik kerak. Zero, har kim o'zidan o'tganini o'zi biladi.

Muhayyo RUSTAMOVA



BALLADA

QUYOSH FARZANDI



O'tkir RAHMAT

1
Qatim nur qatida ajib yorug'lik,
Yo'lma-yo'l ulashib borar ziyoni.
Taqdiri azali Quyoshga bog'liq,
Ezgulik tomonga boshlar dunyoni...

Yorishib jilolar etadi maftun,
Qatrada aks etar uning borligi.
Tong otib, boshlangan sehri bu kun
Ko'rsatar bo'y-bastin, ulug'vorligin.

Nurafshon yuzidan yog'adi mehr,
Qadami yetgan joy turar uyqudan.
Dillarga oydinlik baxsh etib axir,
Bahramand aylaydi ajib tuyg'udan.

Nish urgan maysalar bahordan darak,
Novdalar ko'ksida kurtaklar – marjon.
Hapriqib ko'z tashlar atrofga yurak,
Bulutni panalab boqadi osmon...

Yastangan kengliklar qo'ynida hovur,
Talpinib turibdi sirli kuch-qudrat.
Bu makon bag'riga qo'l uzatib nur,
Yorug' ufq tomonga bag'ishlar shiddat...

Egatda saf tortgan g'o'zalar – uyg'oq,
Boshloqlar ko'targan g'allazor – mag'rur.
Saraton nafasi lab bosar qaynoq,
Jilg'ada oqqan suv – dur-u javohir.

Bu nurning shashtidan
dala-dasht ko'rkam,
Umidvor niyatlar topadi taskin.
Baxmalday to'shalgan qirlarda ko'klam,
Beg'ubor shabada atrofda esgan.

Faraxbaxsh damlarni unutmayman hech,
Dilda satrlarga bag'ishlayman jon.
Yuragim bahoriy orzularga esh,
Bog'ga yo'l olaman baxtli, shodumon...

2
...Bog'da kezarkanman sog'inib yana,
Quv nayman oftobning yuziga boqib.
Borliq yashnab turgan latif lahzada
Xayolim uchadi keng qanot yozib.

Ana nur! Izidan qolmaydi yelib,
Moziyga tutadi sokingina yuz.
Shamol-u bo'tonga nogoh duch kelib,
A'zoyi badani titraydi shu kez.

Ne-ne bahodirga tarixdir guvoh,
O't qo'yib yovlarning jism-u joniga.
Vatanga jon fido ayladi Shiroq,
Nurlar akslandi to'kkan qonida.

Chingizxon diliga solib ming qutqu,
Kelar edi yovqur, bo'lmay yuz xotir.
Dushmanni lol etgan Jaloliddin u,
Jasorat nuriga yo'g'rilgan botir.

Etagidan ushlab asriy sururning
Dunyo zabt etsa-da qilib hang-u mang.
Shiori shu edi buyuk Temurning:
“Nurga to'lsin har uy, millat-u Vatan!”

Ilm-u fan bog'larin yashnatib dildan,
Baxsh etdi olamga sirli dunyolar.
Kuch olgay umrbod osmon ilmidan,
O'chmagay Ulug'bek yoqqan ziyolar.

Ezgulik yo'lidan mudom kuch olgan,
Mehr-u muhabbatga to'lig'idir u.
El qalbiga so'zdan yorug'lik solgan,
Navoiy – nurlarning ulug'idir u.

...Na yo'l ko'rinadi,
na borar manzil,
Begona ovozlarda bunda hukmron.
Nurning yelkasida yuki zil-zambil,
O'zlikni topmoqqa izlaydi imkon.

Yillarni oralab qiynaldi taqdir,
Qaramlik dardidan sarson bo'ldi u.
Ko'rgilik dastidan ezilib oxir,
Ufqqa intilgan karvon bo'ldi u.

Azob-ugubatlar duch keldi qancha,
Qovog'in ochmadi hattoki zamon.
Istagan kunlarni intiq kutgancha
Murodga yetmoqlik bo'lmadi oson!

Ammo imkoni yo'q!
Zimiston – makkor,
Chopog'on umri ham kezdi bemurod.
To'rt tomon bosh urdi, barisi bekor,
Ich-ichdan oh chekdi, ayladi faryod.

Go'yoki umid ham so'ngandi butkul,
Barini taqdirga yo'yib bo'lgandi.
Qorong'u pardasin yirtgan nima ul?
Armonlar ko'ksini tig'day tilgandi...

Toki nur bor zulmat ketadi titrab,
Yorishgan atrof ham tushar junbushga.
Qudratli kuchiga hayrat-la qarab
Bu olam talpingan faqat quyoshga!

Qatra nur singari yaralgan qismat,
Yillarning qa'ridan chiqdi birma-bir.
Boshiga yog'arkan qor-yomg'ir faqat,
Zahmat-u zug'mlar chekdi ko'p og'ir.

Behbudiy, Cho'lpon-u Usmon Nosirday
Nurlarni baribir so'ndirolmadi.
Ularki barhayot Amu va Sirday,
Oqqan daryolardek oqmay qolmadi...

3
Nurdan yaralganki nurga intilar,
Maqsad-u murodi yorug'lik abad.
U yetgan maskanlar xushbaxt, shan bo'lar,
Egilgan qomatlar ko'targaydir qad.

Olovli yillardan saqlab chiqdi jon,
Ko'ksida avaylab ezgu orzuni.
Ne qilsin, yo'l bermas edi u zamon,
Kimga ham aytardi yurak arzini?!

Ammo shijoati susaymadi hech,
Ro'shnolik azmidan qaytmas edi u.
Hatto uxlolmasdi uyquda ham tinch,
Ko'krak kerib bir so'z aytmas edi u.

Registon bag'rida minorlar guvoh –
Nurlarning ovozi yorug'lik edi.
Uning vujudini sig'dirolmas choh –
Borligi aslida ulug'lik edi.

Qo'qon ham ko'z yosh-la chekdi ko'p ozor,
Toshkent ko'chalari qiynoqqa shohid.
Insonning toleyi bo'lgan edi xor,
Nurlar ham hech qachon bo'lmadi shahid.

Zomin-u Baxmalning tuprog'i uzra,
Yaraqlab o'zligin ko'targan nurlar.
Haqning marhamatin xor-u zor izlab,
Oppoq yorug'likka aylangan hurlar.

Buxoro boshiga tushgan savdolar,
Bosqinchi dastidan hamon o'chmagan.
Xivani qiynagan qancha g'avg'olar,
Og'rig'i hali ham qalbdan ko'chmagan...

4
Ko'rinmas kishanni yechmoq osonmas,
Qaramlik nelarga qilmadi duchor.
Ozodlik o'zicha kelgan ham emas,
Bu yo'lda el, axir, ko'p chekdi ozor...

Mutelik azobin yuklari og'ir,
O'zingning noningni olsang birovdan.
Zug'mdan qiynalib dard chekkan bag'ir,
Qon yig'lab chiqardi so'rov, burovdan...

Nurlarki zulmatga beraverdi dosh,
G'anim deb tuhmatdan uni otdilar.
Yurakmas ko'ksida tutganlari tosh,
Porlagan nurlarni bir-bir sotdilar...

O'zingdan sotqinning chiqqani yomon,
Ostonang ostida yotgan chayondir.
Uning qo'lidadir tortilgan kamon,
O'qidan yorug' qalb titragan jondir...

Yillarning qa'ridan so'nmay o'tdi nur,
Shamol-u dovullar yengolmadi hech.
Zulmatni oralab to tongga dovur,
O'ziga bir olam topa oldi kuch...

Bu olam xalq edi...
Ezilgan, so'ngan,
Iligi qaqshagan, talangan bori.
Ammo u nurlandi yana yangidan,
Yo'qoldi qalbidan azob g'ubori.

Uqubat og'rig'i toparkan zavol,
Yuraklarga to'ldi erkning sururi.
Xalq ko'nglin yoritdi unda, ehtimol,
Yo'ichi yulduzining muqaddas nuri...

5
Istiqlo!
Nurlardan yaralgan olam,
Yorug'lik boshlanar ostonasidan.
O'tmishda qolgandek endi dard-u g'am,
O'zga nafas kelar koshonasidan...

Nur bor ekan axir hayot bardavom,
U borgan har manzil doim yorishgay.
Dunga tuhfa etgan har ne'mat, in'om,
Insonlar umriga umrlar qo'shgay...

Charaqladi quyoshi!
Charog'on olam,
Kengliklar bag'rida nuri taralgan.
Uning kabi go'yo dunyoda bekam,
Nur misol fidoyi Inson yaralgan...

Tong ila uyg'onar Quyosh farzandi,
Toshadi bag'ridan bir olam mehr.
U axir mehribon, jasur va tanti,
Dilida tugamas muhabbat, sehr.

Niyatdan taft berib o'z yuragiga,
Borarkan ajdodlar bosgan izidan,
Deydi g'urur ila, chin sharaf ila:
“So'nmas ziyolarning davomchisiman!”

O'zidan uyalib, etmay tamanno
Bir chetda jim qolar

manfur boqishlar,
Bu saxiy ziyoga bo'lsin tasanno,
Olqishlar, fidoyi nurga olqishlar!

Kezib tinchimaydi bu zamin aro,
Hatto ungurlar ham chetda qolmaydi.
Uning ezguligi yer-u ko'k aro,
Yorug'lik taratib sira tolmaydi.

Nurdan erkanib shivirlar bog'lar,
Giyohlar dam sayin bo'yin cho'zadi.
Lahzalar qo'ynida o'zgacha tog'lar,
Boshida oqqushdek bulut suzadi...

Ko'ngil ko'taradi o'zini azot,
Shodligi cheksizdir, yo'q unga qiyos.
Jafokash edi u, o'zgardi hayot,
O'zlikning qadri ham ozod yurtga xos.

Yorug'lik yuz ochgan kulbalarida
Gul-u rayhonlari atri bilan mast.
Bag'riga talpingan shabadalarda
Bir olam halovat yashaydi besas...

Sahardan bedorlik, shijoat, jur'at,
Qolar pok niyatlar bag'rida mangu.
Shashtida sabot bor, sabr-u matonat,
Nur kabi betakror yaralgan jon u!

Zulmatga chorlasa allakimsalar,
Ezgulik yo'lga baxshida bu nur.
Kimlardir tinchlikni mensimasalar,
Yorug'lik tomonga u boshlab borur...

Umrini bag'ishlab millatga, shonga,
Bellashar zamonda shitob bilan u.
Har ko'ngil, har o'lka, har xonadonga
Boradi ilmi nur – kitob bilan u.

U millat dilbandi!
Boqqil zamondosh,
Unga talpinadi yaqin-u yiroq.
Bor bo'lsin shunday
nur baxsh etgan Quyosh,
Qadami qutlug'dir, tilagi porloq!

Istiqbol quyoshi kulsin muloyim,
Umidlar quchog'i guliston bo'lsin.
To saxiy nur kabi bor bo'l ilohim,
Senga sharaf bo'lsin,

senga shon bo'lsin!

2025-yil, iyul.

KUTUBXONA – BIRNIKI, MANFAAT – MINGNIKI

shifoxonalar soni ortib bormoqda.

Ammo odam bolasining qorni to'q, usti but, turmushi farovon bo'lgani bilan dunyoqarashi haminqadar, zehniyatini mog'or bosgan bo'lsa, uni baxtli atab bo'larlami? Baxt izlagan odam nafaqat qorni, balki ko'ngil to'qligi haqida ham bosh qotirishi kerak. Ko'ngil to'qligi esa kitobsiz, mutolaasiz bo'lmaydi.


Bu haqiqatni chuqur anglab yetgan tadbirkorlar Sharifboy ota hamda Quvondiq Abdullayev so'z va ish birligiga amal qiladigan, umrini qalbarga ziyo sochishga bag'ishlayotgan odamlardan. O'tgan yili to'ng'ich farzand Quvondiq Urganch shahrida hashamatli kutubxona ochgan edi. O'shanda u yerdagi kitob fondi, yaratilgan shart-sharoitlarni ko'rib, viloyatda bu maskanga o'xshashi boshqa yo'q, degan xulosaga kelgan edik. Sal shoshgan ekanmiz.

Yaqinda farzandlariga har sohada o'rnak bo'lib kelgan Sharifboy ota ham shaharning gavjum mavzalaridan birida yuz mingdan oshiq kitob fondiga ega “Ustoz” nomli ko'rkam xususiy kutubxonaga asos soldi. Kitobsevarlar uchun bu yerda qulay

shart-sharoitlar yaratilgan: izlagan kitobini topib, mutolaa qilishi yoki uyiga olib ketishi mumkin. Agar asar yoqib qolsa, xarid qilish imkoni ham bor. Shunday qilib, yangi ziyo maskani bir vaqtning o'zida uch vazifani bajaradi: qiroatxona, kutubxona, kitob do'koni.

Ochilish marosimida ta'kidlanishicha, ota-bola shu kungacha viloyatda yettita kitob do'koni va kutubxona faoliyatini yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'lgan. Viloyatning uzoq va yaqin tarixida hali biror ishbilarmon yettitalab kitob do'koni ochmagan, kutubxona qurmagan.

Buni eshitib, moziy qatida yotgan bir asr oldingi ma'lumot yodimga tushdi. 1913-yilda Xiva xonligi hududida 11 ta kitob do'koni va 2 ta xususiy kutubxona (biri Xivada, biri Urganchda) faoliyat yuritgan. Ulardagi kitob fondi o'n sakkiz mingdan oshiq bo'lgan. Bu savobli ishlar boshida esa xonning bosh vaziri, ma'rifatparvar islohotchi, jadidlar homiysi Islomxo'ja turgan. O'z davrida ushbu raqamlar o'lkada katta intellektual siljish sifatida qabul qilingan. Bu xorazmlik jadidlar sa'y-harakati bilan ro'y berganini alohida qayd etish o'rinli.



1870-yilda Toshkentda ham ilk xalq kutubxonasi ochiladi, ammo 1883-yili general-gubernator Chernyayev buyrug'i bilan yopiladi. Shaharlik ziyolilar talabi bilan kutubxona bir yildan so'ng qayta ochilgan.

Shuningdek, 1864-yilda Kitob hokimi Jo'rabek doddoh shaharda yirik kutubxona ochgan, ammo chor ma'murlari hududni bosib olgach, bu kutubxona talon-toroj qilingan. Jo'rabek doddoh Toshkentga kelgach, o'zi yashaydigan Qorasuv mavzesida yana noyob kitoblarga ega shaxsiy kutubxonasini tashkil qiladi.

Ushbu misollarni keltirishdan maqsad, barcha zamonlarda elga ziyo tarqatishni hayot dasturiga kiritgan insonlar bo'lganini eslatishdir.

Bugun Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kitob do'konlari va kutubxonalar soni bir asr ilgari raqamlardan uch barobar ko'p. E'tiborlisi, ushbu ziyo maskanlarining beshdan biri Abdullayevlar oilasiga tegishli.

Sharifboy ota kabi insonlar bor ekan, yaqin yillarda viloyatdagi kitob do'konlari va xususiy kutubxonalar soni yana oshadi. Eng asosiysi, bunga talab va ehtiyojning borligi, kitobsevarlar sanog'i kundan kunga ko'payayotganidir. Shu ezguliklar sabab, “Yosh kitobxon” tanlovining navbatdagi bosh sovrini Urganchga kelsa, ne tong...

Ro'zimboy HASAN



Boshlanishi 1-sahifada.



“O‘ZBEKISTON – OHANRABOLI YURT”

Boshlanishi 1-sahifada.

Buni qarangki, Hindistonda tug‘ilgan mutafakkir shoirlar Amir Xusrav Dehlaviy va Mirzo Abdulqodir Bedilning kelib chiqishi Shahrisabzga taqaladi. Shuningdek, Xorazm vohasidan yetishib chiqqan ulug‘ alloma Abu Rayhon Beruniy birinchilardan bo‘lib Hindistonni ilmiy jihatdan o‘rgangan va izlanishlari asosida mukammal asar yozgan. XIII asrda Sulton Muhammadshoh ibn G‘iyosiddin To‘g‘luqshoh davrida Dehliga ketib, betakror ijodi bilan “faxri zamon” rutbasiga erishgan Badriddin Chochiy qoldirgan go‘zal adabiyot namunalari ham ikki xalqqa yetadigan ma‘naviy xazinadir.

Aytmoqchimanki, til, adabiyot, falsafa, ilm-fan Hindiston va Markaziy Osiyo, ayniqsa, O‘zbekistonni qadimdan bir-biri bilan bog‘lab kelgan. Men kabi ikki xalq tarixi va madaniyatini o‘rganadigan olimlar uchun O‘zbekiston shu bois ham ohanraboli o‘lka bo‘lib qolishi, shubhasiz.

Ikkinchidan, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent va Farg‘ona vodiysi haqida hind adabiyoti orqali ko‘plab manbalarni bolaligimdan eshitib, o‘qib ulg‘ayganman va ular qalbimda ajib tuyg‘ular uyg‘otgan. Bu tuyg‘ular keyinchalik ilmiy qiziqishlarim bilan uyg‘unlashib ketdi. 2019-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida dars berdim. O‘zbekistonlik olimlar bilan do‘stlashdim. Ilmiy faoliyatim va qadrdonlik hissi bois oyog‘im O‘zbekistondan uzilmaydi. Hind, fors, urdu adabiyotining buyuk shoiri Mirzo G‘olib o‘zini “samarqandlik” deb atagan kabi men ham o‘zimni qisman o‘zbekistonlikman deb hisoblayman.

– O‘zbekiston va Hindistonni asrlardan beri bog‘lab turuvchi yana bir mumtoz rishta – har ikki millat tarixida yorqin iz qoldirgan Zahiriddin Muhammad Bobur siymosidir. Siz Bobur hayoti va ijodini chuqur o‘rgangan xorijlik olim sifatida uning hind tamadduniga qo‘shgan hissasini qanday baholaysiz?

– Hind taraqqiyotini Bobur va boburiylarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi va buni tan olmaslikka haqqimiz yo‘q! Hindistonning qaysi go‘shasiga borar ekansiz, boburiylarning tarixiy izlariga duch kelasiz. Yirik Jome masjidi, muhtasham Qizil qasr, Humoyun maqbarasi, Qutb minor – barchasi shu sulola vakillari tomonidan bunyod etilgan diqqatga sazovor maskanlardir. Ayniqsa, Shoh Jahon qurdirgan afsonaviy Tojmahal Hindiston bo‘ynidagi muqaddas tumor bo‘lib qoldi.

Bizning mamlakatda yer-suv tizimi ushbu sulola tomonidan izga solingan va bu hozirgi kunga qadar ham amalda. Shuningdek, Hindistonda ma‘muriyat tizimi ham aslida o‘sha davrlarda shakllangan. Fors, urdu, hind, gujarat, marati, bengal tillarining dialektdan adabiyotga aylanishi ham ular hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi.

Qolaversa, “Boburnoma” hind madaniyati va taraqqiyot davrini o‘rganishda Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asaridan keyingi ikkinchi eng muhim manba hisoblanadi.

Bobur Mirzo urf-odatlarimiz, madaniyat va hayot tarzimizni juda diqqat bilan kuzatgan va bu haqda “Boburnoma”da jonli, aniq va chuqur bayon etgan. Bu kitobda safarnoma elementlari bor, lekin u to‘liq safarnoma ham emas. “Boburnoma” xalqlarimiz uchun eng yaxshi memuar ensiklopediyadir. U dunyo adabiyotining bebaho klassik asarlaridan biri. Men hind va o‘zbek xalqi “Boburnoma”ni o‘qishi shart deb o‘ylayman.

Albatta, Bobur kabi ulug‘ mutafakkir qadam qo‘ygan yerlarda ma‘rifat, ma‘naviyat va madaniyatning chuqur izlari bo‘lishi tabiiy. Uning Hindiston taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi esa abadulabad e’tirof etilajakdir.

– Hindiston Prezidenti qarorgohida Bobur Mirzo xotirasiga bog‘ tashkil etilgani va uning eshiklari har yili fevral-aprel oylarida xalq uchun ochiq turishini eshitgan edik. Shu haqda gapirib bersangiz.

– Xuddi shunday. Bog‘ning tarhini yaratishda “Bobur bog‘lari” arxitekturasiga



tayaniilgan. Bog‘ning ochilish marosimi juda katta bayramga aylanib ketgan edi. Tomosha qilishga Hindistonning barcha shtatlaridan nihoyatda ko‘p odam keldi. Mazkur bog‘ har yili mohir bog‘bonlar, landshaft ustalari tomonidan millionlab anvoyi gullar, manzarali daraxtlar bilan zamonaviy dizayn va o‘ziga xos uslubda yasatiladi.

Faqat bir og‘riqli joyi bor, inglizlar Hindistonning tarixiy hujjatlariga boburiylarni mo‘g‘ullar deb kiritib ketishgani bois, bu bog‘ yaqin-yaqingacha “Mo‘g‘ullar bog‘i” deb atalgan.



– Javoharla‘l Neru nomidagi universitet Hindistondagi eng yetakchi oliy o‘quv yurti hisoblanadi. U yerda hind yoshlarining o‘zbek tilini mukammal o‘rganayotgani bizni xursand qildi...

– Ha, biz o‘zbek tili o‘quv kursini qayta ochdik. Unda faqat universitet talabalari emas, boshqa o‘quv yurtlaridan ham yigit-qizlar kelib o‘qishadi. Qirq yilcha avval bunday kurs bo‘lgan, lekin keyinchalik negadir yopilgan. Universitetimizda fors tili professori bor, u o‘zbek tilidan ham dars beradi. O‘zbekistonning Hindistondagi elchixonasi xodimlari tashkiliy masalalarda bizga yordam berishadi. O‘zbekistondagi bir qancha universitetlar bilan hamkorlik memorandumlari imzoladik. Albatta, bu talabalarimizga faqat muloqot uchunгина emas, balki umumadabiy merosimizni o‘rganish va uni tadqiq qilish uchun ham kerak. Salohiyatli o‘zbek ustozlarni taklif qilyapmiz. Shu masalada Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va

adabiyoti universiteti rektori, akademik Shuhrat Sirojiddinov qabuliga ham kirdim. U kishi bizga o‘qituvchi ajratishda yordam berishga tayyor ekanini ma‘lum qildi. Bu esa talabalarimizga O‘zbekiston tarixi, jamiyati, madaniyati, iqtisodiyoti va buguni haqida to‘liq axborotga ega bo‘lish imkonini yaratadi.

– Faoliyatingiz va dunyo olimlari bilan munosabatlaringiz haqida so‘zlab bersangiz.

– 24 yildan buyon Javoharla‘l Neru universitetida ishlayman. Bundan tashqari, bir muddat Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ham faoliyat olib bordim. Oksford, Kembrij, Princeton universitetlarida ma‘ruza o‘qiyman. Yana Pokistondagi bir oliy o‘quv yurti bilan ham shartnomaviy darslarim bor. Yaqinda Princeton universitetining katta loyihasida ishtirok etdim.

Umuman, bir qancha xalqaro ilmiy-adabiy loyihalarda qatnashib kelyapman. Ellikdan ortiq fan nomzodlari va magistrantlarning ilmiy ishlariga rahbarlik qildim. She‘rlar, tarjimalar, ilmiy maqolalar, adabiy qo‘lanmalardan iborat o‘ttizga yaqin kitobim nashr etilgan. Ko‘plab adabiy va madaniy assotsiatsiyalarga a‘zo bo‘ldim. Hindistonda fors tili o‘qituvchilari uyushmasining ilmiy kotibi, forsiy shoirlar uyushmasi rahbariman. Tarjima bilan ham shug‘ullanaman. Yaqinda o‘zbek adibasi Shahodat Isaxo-

– So‘nggi paytlarda havaskor tarjimonlar ko‘payib ketdi. Ular tomonidan turli tillarga qilinayotgan tarjimalarning saviyasi ancha bahsli. Bunday holatlar she‘riyatning saviyasiga putur yetkazmaydimi? Olim sifatida siz bunga qanday qaraysiz?

– Yaxshi savol. Darhaqiqat, she‘r boshqa tilga o‘g‘irilmaydi. Chunki u ko‘zyoshiga o‘xshaydi. Ko‘zyoshi muayyan hissiy holat natijasida paydo bo‘ladi. Ba‘zan qayg‘udan, ba‘zan shodlikdan. Laboratoriyada kimyoviy usulda sun‘iy ko‘z yoshi yasashigiz mumkin, ammo u haqiqiy bo‘lmaydi. She‘riyat ham shunday. U mantiq va hissiyot ifodasi. Faqat bir kishigina uni yarata oladi – u ham bo‘lsa shoirning o‘zi. She‘rning mazmuniga chuqur kirib, uni yana she‘riy usulda qayta yaratish va balki shunga yaqinlashishigina mumkin. Aks holda, she‘r o‘g‘irilmaydi.

O‘zim shunday fikrda bo‘lsam-da, arab tilidan hazrat Ali, Hasan ibn Sobit, Ibn Arabiy; forschadan Mavlono Rumi, Sa‘diy, Hofiz Sheroziy, Amir Xusrav, Bedil kabi mumtoz shoirlarning asarlarini tarjima qilganman. Bu juda qiyin ish. Men she‘rni o‘qiyotgan paytimda uning ruhiga kira olsamgina tarjimasiga qo‘l uraman.

Tarjimadan maqsad – ommalashtirish. Agar she‘r hatto tarjima qilingan holatda ham o‘quvchi kayfiyatiga ta‘sir qila olsa, demak, u haqiqiy she‘r.

– Sun‘iy intellekt qanchalik rivojlanmasin, inson tafakkuri bilan tenglasholmaydi. Chunki uning o‘zi o‘sha tafakkur mahsulidir.

Ha, sun‘iy intellekt she‘r yozadi, surat chizadi, tarjima qiladi, maqola tayyorlay oladi. Lekin u bajargan ishlar, baribir, o‘rtamiyona darajada bo‘ladi. Ayniqsa, ijodiy ishni san‘atkorona yarata olmaydi. Bir necha asr oldin minglab shoir bo‘lgandir balki. Ular ham ehtimol o‘z doirasida yaxshigina tanilgan bo‘lishi mumkin. Lekin bizgacha bir necha nafarigina yetib keldi. Daholar yashab qoldi, o‘lmadi, qolganlari yitib ketdi. Shunday emasmi?

Insoniyat aql-zakovatiga, ijodiy mahsuliga talab hech qachon o‘lmaydi. Bu tomondan xavotir olishga o‘rin yo‘q, deb o‘ylayman. Lekin boshqa narsa bor. Sun‘iy intellekt inson ongini egallab ola boshlagani rost. Bugun odamlar o‘zidan “uzoqda” yashayapti. Agar u o‘ziga, o‘zligiga qaytmas ekan, ijodiy qobiliyatidan ayriladi, ong, shuur tomonlarga nogiron bo‘lib qoladi. Asl adabiyot, ilm, madaniyatga ehtiyoj hamisha bo‘ladi, ammo bu ehtiyojni qanoatlaniradigan ijodkor-u olim topilmay qolish xavfi bor.

– Hindistonda bir muddat yashab, xalqingizning madaniy obyektlarga chuqur ehtiromidan hayratlanganman. Hindlar muzey va tarixiy obidalarini tomosha qilish uchun puli va vaqtini ayamaydi. Shuningdek, hind to‘ylarida, mavqeyidan qat‘i nazar, barchaning birdek milliy libos kiyishi ham meni hayron qoldirgan. Nima deb o‘ylaysiz, Hindiston uzoq yillik mustamlakalarda milliy o‘zlikka sadoqat hissini qanday saqlab qolgan?

– Ha, Hindiston o‘z urf-odatlariga sodiq mamlakat. Garchi yurtimizda yuzlab til, diniy e’tiqod, mazhablar, urf-odatlar, qabila, etnik guruhlar yashasa-da, biz qadriyatlarimizda sobitimiz. Aytganingizdek, xalqimiz o‘zining milliyatini mustamlakalardan omon olib chiqdi.

Aslida, qadriyatlar ildizlari shu qadar chuqur bo‘ladiki, uni sug‘urib tashlashning iloji yo‘q. Biroq bugun ko‘p millatlar o‘zligini unutib, g‘arb an‘analarini qabul qilmoqda. Jumladan, Dehli hayotida ham Yevropaning ta‘siri yo‘q emas. Maktablarimiz deyarli ingliz tiliga ixtisoslashib bormoqda. Hind yoshlari urdu, hind, panjobiy, tamil yoki bengal adabiyotini o‘qiy olmaydi. Xo‘sh, ular endi hind klassik asarlaridan bexabar qoladilarmi? Biz eski sanskrit va pali yozuvidan, buning ortidan esa ulkan adabiyotdan ayrildik hisob. Men bir hindistonlik o‘laroq, milliy intellektimizdan uzoqlashayotganimizdan tashvishlanaman.

Bunday yo‘qotishni Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham ko‘raman. Sizda ham qo‘lyozma asarlarning deyarli barchasi arab yozuvida, yangi avlod esa bu yozuvni bilmaydi. Shuning uchun kutubxonalarda saqlanayotgan noyob asarlar bilan aloqalar deyarli uzilmoqda.

Muzey va tarixiy obidalar, urf-odatlar, milliylikka ehtiromimiz esa hudud va aholi sonining kattaligi hamda hind xalqining san‘atsevarligi bilan ham qisman bog‘liq, deb o‘ylayman. Millat muhabbatini yengishga qodir hech bir kuch yo‘q. Mustamlakachilar xalqqa ijtimoiy jihatdan bosim qilishi mumkin, lekin uning asliyatini yo‘q qila olmaydi.

– O‘zbek xalqining sizni eng mutaassir qiladigan jihatini ayta olasizmi?


– Albatta, mehmondo‘stligi. Men chet ellarga tez-tez safarga chiqaman va juda ko‘p do‘stlar orttirganman. Qachon borsam, ular hurmatimni joyiga qo‘yishadi. Lekin o‘zbekona mezbunlik dunyoda tengsizdir. O‘zbeklar mehmonini yer-u ko‘kka ishonmaydi. Boshqa hech bir yerda begona odamni bu qadar e‘zozlashmaydi. Bu, meningcha, mahalliy madaniyat va islomiy tarbiya tufaylidir. Agar yo‘q demasangiz, o‘zim yozgan bir she‘r bilan so‘zimni yakunlasam.

*Go‘zal kulgi, nozli boqishlar,
Lol ayladi mayin so‘zlaring.
Ne edi u berilgan va‘da,
Kelaman deb nechun kelmading?*

*Labing, ko‘zing, ruhing anbari,
Maftun etgan ko‘ydaman hamon.
Qo‘ng‘iroqsosch, qosh, kiprik – bari,
Hayotimni ayladi tamom.*

*Aqldan ozdirib husning-la meni,
Bir dalli qul kabi bandi ayladim.
Ko‘ngil zanjiriga ozod qalbimni
Javobsiz muhabbat bilan boylading.*

Muhayyo RUSTAM qizi suhbatlashdi.



“...Boburning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, san‘atda, hayotda, me‘morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha taraqqiyot yuz berdi.

Javoharla‘l NERU



novaning hikoyalar to‘plamini urdu tiliga o‘girdim. O‘zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari hind xalqiga taqdim etish niyatim bor. Maqsadim – adabiy aloqalar rivojiga hissa qo‘shish. O‘ylaymanki, bizning zamonaviy hind adabiyoti namunalari ham o‘zbek tiliga tarjima qilinadi.

– Facebook tarmog‘idagi sahifangizda e‘lon qilingan she‘rlaringizni o‘qidim. She‘riyatga qiziqishingiz qachon boshlangan? Siz uchun she‘riyat nima?

– She‘r – bu hodisa. Shuningdek, u bir inson tuyg‘ularining tabiiy va ijodiy ifodasidir. Bu birgina holat yoki kechinma bilan cheklanmaydi. Chunki inson butun umr bir holatda yashamaydi. Shoirning ichki dunyosidagi kayfiyat uning she‘riyatida aks etadi. Tug‘ma shoirlarga she‘r ilohiy ilhom bilan keladi.

O‘zim klassik she‘riyatni yaxshi ko‘raman. Lekin ma‘lum bir yo‘nalishga yopishib olish fikridan uzoqman. Urdu va fors mumtoz shoirlarining deyarli barchasini o‘qiganman. Boshqa tillardagi, xususan hind, ingliz, shuningdek, o‘zbek she‘riyatini ham sevim mutolaa qilaman.

She‘r tarjimasi nafaqat so‘z, balki ruhiyat tarjimasi hamdir. Ya‘ni, uning zamiridagi tuyg‘u, ritm, ifodalar ham qayta yaratilishi lozim. Tarjima qilingan she‘r bir tanadan boshqa tanaga ko‘chirib o‘tkazilgan yurakka o‘xshaydi. Bir tildan ikkinchi tilga tayayotganida u urib turishdan to‘xtab qolmasligi kerak. Tarjimon bunga erishsagina, murodi hosil bo‘ladi.

Adabiy tarjima – yuraklar orasidagi ko‘prik. Asar muallifi bilan hamkorlik qilur ekansiz, uning tuyg‘ulariga xiyonat qilmasligingiz kerak. Bu juda nozik jarayon. Ayniqsa, turkiy tillarning o‘ziga xos tembr va musiqiy elementi bor. Tarjimon ularni saqlab qolishga harakat qilishi kerak. Har bir she‘rga yondashuv turlicha, chunki har bir muallifning uslubi va fikrlash tarzi o‘ziga xos.

– To‘rtinchi sanoat inqilobi hosilasi sifatida e’tirof etilayotgan sun‘iy intellekt har bir sohani qamrab olayotgani kishini o‘ylantiradi. Bugun unga buyruq berib, she‘r yozdirish, surat chizdirish ham mumkin. Sizningcha, bu ketishda kelajakda ijodkor va olimlarning holi nima kechadi?



ABADIYAT ORALAB...

Negadir, xonandalardan “kumir”im, ya’ni jon-dildan yaxshi ko’radiganim yo’q. Ehtimol, bu ashula aytishga layoqatim kamligidandir. Chunki o’zim rubob yo dutor chalib, ko’proq zavq olsam kerak-da. Endi sekin-sekin tanburga ham o’tilyapti. Lekin Hoji Abdulaziz Rasulov, Rasul qori Mamadaliyev, Halima Nosirova, Ma’murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Berta Davidova, Botir Zokirov, Bobomurod Hamdamov, Sherali Jo’rayev va boshqalar ovozi-yu ijrosida ajib go’zallik, hech kimnikiga o’xshamagan o’ziga xoslik, balandparvoz ifoda deb hisoblamasangiz, ilohiy bir joziba borligini ich-ichdan his qilaman. Ularning ashula yo qo’shiqlarini eshitsam, ba’zan Allohning shunday qudratiga qoyil qolganimdan beixtiyor yig’i ham keladi.

IKKI QUTBNI BIRLASHTIRGAN HOFIZ

Talabalik yillarimizda (1971–1976) afsonaviy xonanda Sherali Jo’rayev haqida ko’p bahslashardik. Uning sahnada o’zini haddan tashqari erkin tutishi, kutilmaganda o’ng qo’lini tordan bo’shatib, sozni chap qo’lida osiltirib olishi, hatto musiqani to’xtatib qo’yib, ashula o’rtasida deklomatsiyaga ham o’tib ketishi yuzasidan ko’p tortishganmiz. Ochig’i, kamina ko’pincha uning tanqidchilari safida bo’lar edim. Yillar o’tdi. Hofiz tinmay tafakkurini o’stirdi. Yangi-yangi yo’llar, g’oyalar, ohanglar, usullar, uslublar izladi. El-ulusning ko’ngliga kirdi. Shuni isbotladiki, har kim ham xonandalikda u erishgan yuksak darajaga ko’tarila olmas ekan.

Avvalo, u so’zga oshufta edi. Xonandalikni musiqa va ovoz orqali elga fikr aytish vositasi, hofizni esa, bevosita mafkuraviy soha vakili, deb bildi. Xalqqa musiqa va ovoz orqali g’oya berishni maqsad qildi. Ommani shu g’oyalar ortidan ergashtirdi. Axir, u so’zini tushunmagan holda birorta ham qo’shiq aytgan yo’q. She’rning so’zini tushunish ekan, hatto uni “tushuntirmasdan” turib ham birorta ashula ijro etmadi.

Erkin Vohidovning “O’zbekim” qasidasi aruz vaznida, ya’ni qo’shiqqa mos ohangda bitilgan, lekin Abdulla Oripovning “O’zbekiston” qasidasi qo’shiq uchun yozilganmi? Sherali Jo’rayev shuni ham mumtoz bir ashulaga aylantirdi. Bu buyuk san’atkorninggina qo’lidan keladi.

1956-yili kommunistik partiyaning XX syezdidan keyin biroz erkinlik shabadalari esa boshlandi. O’zbek she’riyatida milliy tenglik g’oyalari tarannum etishga kirishildi. Hatto, ilg’or ziyolilar adabiy asarlarga aynan shu g’oyaga qanchalar xizmat qilgan-qilmaganiga qarab baho berishga o’tdi. Ammo bu yangi yo’nalishdagi she’riyatda milliy g’oyalar ilgari surilayotgan, bu esa amalda hukmron siyosatga zimdan qarshi bir mafkura edi. Sherali Jo’rayev she’riyatdagi shu tamoyillarni xonandachilikka olib kirdi. She’riyat va musiqiy san’at qo’shilib, xalqni uyg’otdi. Bu uyg’onish oxir-oqibat O’zbekistonimizni mustaqillik sari yetakladi va niyatga yetildi ham.

Abdulla Oripovga ham, Erkin Vohidovga ham, aslida, “O’zbekiston Qahramoni” oliy unvoni aynan ana shu sovet davridagi jasoratlari uchun berilgan edi. Ochig’i, bu ikki qo’shiqni xalqimiz O’zbekiston o’z mustaqilligiga erishgunga qadar xuddi bir milliy madhiya yanglig’i qabul qildi. “O’zbekim”ni ko’plar “hofizning eng zo’r qo’shig’i” deb hisoblaydi. “O’zbekiston” qasidasini ham yoniga qo’shib, bular o’z davrida milliy mafkurani shakllantirish uchun asos bo’ldi, xalq orasida milliy ozodlik hissinu uyg’otdi, deb hisoblash mumkin.

Yoki, Omon Matjon qalamiga mansub Navoiyning “Avvalgil’arg’a o’xshamas” g’azaliga bog’lagan taxmisini Sherali Jo’rayev ashula qilib, el orasida keng yoymaganida edi, undan ko’plar bexabar qolishi ham mumkin edi. Xuddi shunday, “O’zbekim” va “O’zbekiston” qasidalarini o’qigan ko’pmi yoxud ashula tarzida eshitganmi? Albatta, bu savolga arifmetik aniqlikda javob berish juda qiyin. Ammo, hoynahoy, o’qiganlar sonidan eshitganlar soni bir necha karra ko’p bo’lsa kerak.

Yo xonandalarimiz ijodi har taraflama tahlil etilgan ilmiy risola va maqolalar kam, yo boshqa soha vakili bo’lgani uchun kaminaga shunday tuyuladi. Har holda, Sherali Jo’rayev, Bobomurod Hamdamov, Ortiq Otajonovdek xalq sevgan hofizlarimizning bir-biriga o’xshamagan o’z yo’li, o’z uslubi bor edi. Shu ma’noda Sherali aka ziyolilar xonandasi edi. O’tgan asrning



“Qadim zamonlardan she’riyat bilan musiqa bir onaning ikki egiz farzandi kabi o’xshash va yaqin, bir zarvaraqqning ikki sahifasi kabi tutash va bir butun bo’lib kelgan.

Erkin VOHIDOV

70–80-yillarida talabalar o’rtasida ham muxlisi juda bisyor edi.

Buyuk hofiz keyinchalik ko’p sinovlarga duch keldi. Hozir buning sabablarini qidirib o’tirishning mavridi emas. Kaminaning qat’iy xulosasi shuki, ijodkorga “siyosatchi” deb qaramaslik, erkinligi, hurfiqligi bu toifaning asosiy fazilati ekanini aslo unutmaslik kerak.

Taqiqli har kim har xil qabul qiladi. Ba’zilar darhol kimlarnidir yomonlashga o’tib oladi. Butunlay tushkunlikka tushib, bor ijodini boy berib qo’rganlar ham topiladi. Sherali akaning ijodidan to’xtagani, ig’vo-g’iybatlarga qo’shilgani, kimlardandir domongir bo’lganini aslo eshitmadik. Ochig’i, keyingi paytlarda unda o’z taqdirini Allohning irodasi sifatida talqin etishga moyillik kuchaygan edi.

2016-yil oxirlaridan hofiz uchun keng yo’l ochildi. “Zo’rTV”da uning ishtirokida navoiyxonlik kechasi tashkil etildi. Unda navoiyshunos mutaxassis bir g’azalni qisqa sharhladi, keyin u ijro etiladi. Kamina buyuk shoirning:

La’ling oyo ne ajab rangindur,

So’zi aning ne bala shirindur, –

bayti bilan boshlanadigan g’azalini sharhlagan bo’ldim. Orada Sherali aka:

– Men otamga: “Nega menga “Alisher” deb ot qo’y-magansiz? O’shanda, ehtimol, Navoiydan mashhur bo’lib ketarmidim, deganman”, – dedi.

Shunda stol ustida turgan mikrofonni shart oldim-da: – Musulmon Sharq mumtoz badiiyatida “tardi aks” degan san’at bor. Unda so’zlarning o’rni o’zaro o’zgartirib qo’llanadi. Masalan, shoir avval “Sherali” deydi, keyin “Sher” bilan “Ali” so’zlarining joyini almashtirib ishlatadi, “Alisher” bo’ladi. Siz hech armon qilmang: “Sherali” – “Alisher”! – dedim.

Bu lutf hofizga ko’p ma’qul tushdi. Zal ham qarsak chalib yubordi.

Uning ko’nglida ikki qutb birlashganday edi. Uzoqdan qarasangiz, o’ta mag’rur bo’lib ko’rinar edi. Yaqindan bilganlar uning qanchalar yumshoqko’ngil, so’fiylikka moyil shaxsligiga guvoh bo’lardi. Aslida, kamtarlikni namoyon qilish ham bir san’at. Bu kishi tabiatan o’ta kamtar edi.

Sherali aka chinakamiga izlanuvchan ijodkor edi. Navoiyning “Aylangiz” va “Emas” radifli g’azallarini mahorat bilan ijro etgan. Birinchi g’azal oxirigi baytidagi: “Ey mug’anniyar, Navoiy mast edi, (shuning uchun u) kech uyg’onadi, uni uyg’otishga bir dilkash (yoqimli) kuy (yo qo’shiq) tarannum etinglar”, degan mazmundagi ajoyib sahnaviy tasvir bilan tugashi hofizga ajib ilhom ulashgan. Natijada uning o’zbek qo’shiqchiligidagi qat’iy an’analarini buzib bo’lsa ham, Navoiyning shu g’azalidagi lirik qahramonining iltimosini bajo aylagisi kelib ketgan. Shu g’azalga “Emas” radifli g’azalni ulab ijro etgan. Chunki bu g’azal maqtasida ham lirik qahramon, xuddi oldin tilga olingan g’azal maqtasidagi kabi, Navoiyning mastligini tilga oladi:

Manga gulrux soqi-yu, bulbulg’a gul tutti qadahr,

Mast erur ul ham Navoiydek, vale rasvo emas.

Yana bir aloqador jihati – ikkala g’azal ham ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), ya’ni “foilotun-foilotun-foilotun-foilon (yoki foilon)” vaznida bitilgan. Ikkala asardan ham ayrim baytlar qisqartirilgan, albatta.

Bizda mumtoz g’azallarimizni maqom yo’lida aytish an’anasi ustuvor. Sherali aka ana shu qolipni bir qadar sindirdi: ularni milliy ashulachilik uslubiga solib aytdi. Bu an’ana Faxriddin Umarov va boshqa ayrim hofizlar ijodida ham bor edi. Keyingi davrda Ozodbek Nazarbekov Lutfiy va boshqa mumtoz shoirilarimiz g’azallarini zamonaviy kuyga solib aytish an’anasini izchil davom ettirib kelyapti.

O’zi-ku ta’ziyada musiqaga aslo o’rin yo’q. Lekin, ishonsangiz ham, ishonmasangiz ham, bir gapni aytaman: buyuk hofiz vafot etganidan keyin bir necha kun mahallamizning u yo bu hovlisida ovoz kuchaytirgichni eng baland nuqtasiga burab qo’yilgan holda ana shu afsonaviy xonanda ashulalari yangrab turdi.

San’at o’lmaydi!

Haqiqiy san’atkor ham!

Demakki, O’zbekiston hamda Tojikiston xalq artisti Sherali Jo’rayev ham!

Sultonmurod OLIM,
O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi

OYINA

“ANOYINING JAYDARI OLMASI” QARDOSHLAR SAHNASIDA

Boshlanishi 1-sahifada.

Ko’pchilik qatori meni ham, avvalo, bir savol qiziqtdi: “Nega aynan “Anoyi?” Axir sahnalashtiraman deyilsa, Erkin A’zam so’zicha “xaridorini kutib turgan pyesalari bor”.

Kinomuhiblar yaxshi eslasa kerak, o’tgan asrning 90-yillari rejissyor Farhod Haydarov “Anoyining jaydari olmasi” asosida “Chantrimore” nomli film suratga olgan. O’shanda, ayniqsa, bosh qahramon – Ramazon obrazini ijro etgan Muhammadjon Xolmatov ijrosi ko’pchilikka ma’qul kelgan, aktyor do’lvorgina, sodda, samimiy va chapani o’zbek yigiti qiyofasini gavdalandirgan edi. Mana, oradan yillar o’tib, hikoya endi teatr sahnasida!

Rejissyor Sayfiddin Meliyev spektakl janrini “etno-folklor tomosha” deb belgilaydi. Xalqona kuy-qo’shiq, surxoncha liboslar, rang-barang dekoratsiyalar shundan. Sahnada yog’ochdan yasalgan shartli makonni ko’ramiz: yuqoriga tarnov o’rnatilgan, shildirab suv oqadi. O’rtada hovuz: ikki nafar bolakay bir-biriga suv sepib cho’miladi. Bu orqali ular qishloq muhitini, ikki do’st (Ramazon va yigit)ning bolalik xotiralarini jonlantiradi.

Spektaklda yigit rolini ijro etgan aktyor Ulug’bek Nosirov bir vaqtning o’zida voqealar sharhlovchisi, ham asosiy qahramonlardan biriga aylangan. Asar uning tilidan hikoya qilinadi. U qahramonlarning holati, kechinmalariga munosabat bildirar ekan, bu hol tomoshabinning voqealarni teran anglashiga yo’l ochadi.

Ramazon obrazi ijrochisi Javlon Sayitov gohda komik, gohda psixologik bo’yoqlar bilan qahramoni xarakterini ochib beradi. Qotmadan kelgan, miqti yigit tomosha davomida yaxshigina ruhiy va jismoniy quvvat sarflaydi.

Aktyor boshi va egnida boysuncha do’ppi-yu chopon, qo’lida “egasidek betayin – qullansa ochilmaydigan, ochilsa qullanmaydigan antiqa chamadon”, tomosha zalidan “Chantrimore-el” deya hayqirgancha kirib kelarok hammaning e’tiborini jalb qiladi. U biroz sahnada harakatsiz qolmaydi. Ayniqsa, qahramon xarakteridagi o’zgarish, keskin burilishlarni mohirona talqin etadi. Deylik, mana bu sahna: “Olma mojarosi”dan so’ng qamoqqa olingan Ramazon jazo muddatini o’tab ozodlikka chiqqach, boshqa odamga aylanadi – zamonaviy kiyingan, qo’lda sigaret, qiyofa jiddiy. Taqdirning kutilmagan o’yinlari uni ancha o’zgartirgani, qarashlari, nigohlarini sergak torttirgani seziladi. Ammo o’sha-o’sha jaydarilik, o’sha-o’sha anoyi falsafa: “Dunyoni panjaradan ham bir ko’rib qo’ydim-da, ziyon qilmas...”

Ma’lumki, adabiyot va teatrning ifoda vositasi, tutumlari bo’lak. Adabiyot – so’z san’ati, voqealarni so’z ila tasvirlaydi, hikoya qiladi. Teatr esa shartli hodisa, ya’ni sahnada hamma narsani boricha ko’rsatish, talqin qilish ilojisiz. Zero, kitobdan farqli, sahnada syujetni boshdan oyoq hikoya qilib berish imkonsiz. Holbuki, spektaklni faqat so’zga qursangiz, tomoshabin mudray boshlaydi, zerikadi. Rejissyorimiz buni yaxshi biladi, shu bois hikoya asosida alohida tomosha yaratadi.

Aytaylik, Toshkentga kelgan Ramazon do’stiga Boysun hangomalarini radioeshittirish o’laroq so’zlab beradigan g’oyat samimiy lavha bor. Ramazon qo’lidagi

JAHON AYVONIDA

TIBBIYOT XODIMLARIGA TAJOVUZ UCHUN JAZO

Qozog’iston Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev tibbiyot xodimlariga nisbatan jismoniy zo’ravonlik va shafqatsizlik uchun jazoni kuchaytirishni qo’llab-quvvatladi.



Bu haqda uning matbuot kotibi Ruslan Jeldibay ma’lum qildi.

“TengriNews”ning yozishicha, Qozog’istonda iyul oyining o’zida tibbiyot xodimlariga ikki marta hujum uyushtirilgan. Bir holatda Kostanaydagi viloyat shifoxonasida navbatda turishni xohlamagan betoqat bemor jarrohni kaltaklagani bo’yicha ijtimoiy tarmoqlarda shov-shuv ko’tarilgan. Shifokor og’ir ahvolda reanimatsiya bo’limiga yotqizilgan.

AQSH YUNESKO SAFIDAN CHIQMOQDA



AQSh prezidenti Donald Trump tashkilotning “Amerikaga va Isroilga qarshi” kun tartibi tufayli AQShning YUNESKodan chiqishi to’g’risida qaror qabul qildi. Bu haqda “New York Post” Oq uyga, “Reuters” esa ikki yevropalik diplomatga tayanib yozmoqda.

Oq uy matbuot kotibi o’rinbosari Anna Kellingin so’zlariga ko’ra, Tramp ma’muriyati YUNESKOning xilma-xillik, tenglik va inkluzivlik siyosatidan, shuningdek, uning “falastinparast va xitoyparast tarafdashligidan” norozi.



CHEGARADA QUROLLI TO’QNASHUV

Tailand va Kambodja bir-birini chegarada qurolli to’qnashuv fitnasida ayblamoqda. “Reuters” agentligi ma’lumotiga ko’ra, dastlabki otishmalar bahsli hududda joylashgan Ta Moan Txom ibodatxonasi atrofida boshlangan.

Tailand tomoniga ko’ra, kambodjalik harbiylar Oddar-Meanchey provintsiyasi hududiga razvedka droni uchirgan, shundan keyin baravar o’t ochish reaktiv tizimlari bilan tailandlik harbiylarni o’qqa tutgan.

Kambodja mudofaa vazirligi esa Tailand qo’shini asossiz bosqin uyushtirgani va qurolli kuchlar “o’zini himoya qilish tartibida javob qaytargani”ni aytmoqda.

ROSSIYADA YANA BIR CHEKLOV



Rossiya Davlat dumasi yalpi majlisa “bilib turib ekstremistik materiallar”ni internetda qidirganlik uchun 5 ming rublgacha jarima to’lash haqidagi qonun loyihasini ma’qulladi.



gazlamadan mikrofon yasaydi-da, latifalarga o’tadi. Eskilik sarqiti sifatida nosdan voz kechib, zamonaviylikka intilib sigaretga o’tgan Ashur kal; o’zining ko’knor kayfida kampiri bilan g’ijillashib, qizining chorbog’iga ko’chib ketgan bobosi; milisadan mullaga aylangan, bir kuni xudoyiga ketayotib boshida salla, qo’lida aso, milisaxona oldidan o’tganda chest berib yuborgan Esonberdiyev bilan bog’liq hangomalarga guvoh bo’lasiz, yayrab kulasiz. Aktyorlar mazkur personajlarni yumoristik kayfiyatda gavdalandiradi, shu taxlit “teatr ichida teatr” uslubi paydo bo’ladi.

Yoki hikoyadagi Shodi garang kechmishiga ham sahnaviy tus beriladi: “xotini bor, hovli-joyi bor, kattakon olmozor bog’i bor – farzandi yo’q” Shodi (Odiljon To’g’anboyev ijrosida) bo’sh beshikni yelkasiga ortmoqlagancha sahnaga chiqib keladi. So’ng befarzandlik dog’idan aziyat chekib, folklor ohanglarida qo’shiq kuylaydi. Beshik farzandga zorligidan hasrat chekadi.

Avval ta’kidlaganimizdek, spektakl – etno-folklor tomosha. Ayni janr rejissyorga ancha erkinlik bergan. Kuy-qo’shiqlar bobida ham bu yaqqol ko’rinadi. Ayniqsa, final sahnasida O’zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf she’ri bilan kuylanuvchi tarona tom ma’noda sahna asarining badiiy-g’oyaviy ahamiyatini ochib beruvchi leytmotivga aylangan:

Olma otdim otganga,

Diydasi tosh qotganga.

Dunyo bo’lsin qorong’u

O’z do’stini sotganga...

Qo’shiqni tinglay turib, chin do’st qadriga yetmagan, yonginasidagi jo’mard insonni boy bergan alamidiya qalbning yurak o’rtanishlari, tazarrulari ko’z o’ngimizdan o’tadi. Ushbu qo’shiq spektaklning mantiqiy yechimi ham bo’lib, muallif va rejissyor g’oyasining yuzaga chiqishiga xizmat qiladi.

Umidimiz shuki, hali Chimkent sahnasida o’zbek adabiyotining mana shunday ko’p yaxshi asarlari yo’naladi, bu maskan uzoq yillar davomida qardosh xalqlar madaniyatining mushtarak timsoli o’laroq yashaydi, ijod qiladi

Shohrux ABDURASULOV,
san’atshunoslik fanlari bo’yicha
falsafa doktori

XITOIDA 6G SINOVDAN O’TKAZILDI

“China Mobile” kompaniyasi dunyodagi birinchi kichik miqyosli tajribaviy oltinchi avlod – 6G aloqa tarmog’ini ishga tushirganini e’lon qildi. Sinov infratuzilmasi 10 ta tayanch stansiyani o’z ichiga oladi. Bu haqda “MyDrivers” xabar bermoqda.



Ma’lum qilinishicha, loyiha tadqiqot maqsadlarida amalga oshirilmoqda va joriy bosqichda tijorat maqsadlarida foydalanishni ko’zda tutmaydi.

Dastlabki sinovlar davomida ma’lumotlarni uzatish tezligi 280 Gbit/s ga yetgan. Bu 5G tarmoqlarining nazariy maksimal ko’rsatkichidan 14 barobar yuqori degani. Bunday tezlikda 50 Gb hajmdagi ma’lumotni bir yarim soniyadan kamroq vaqt ichida uzatish mumkin.

COLGATE TISH PASTASI TAQIQLANDI

Argentina hukumati aholining shikoyatlaridan so’ng “Colgate Total Active Prevention Clean Mint” tish pastasining iste’moli, tarqatilishi va reklama qilinishini taqiqladi.

Iste’molchilar tish pastasidan foydalangach, og’iz bo’shlig’i to’qimalarida yallig’lanish, pufakchalar, yaralar, achishish, shish va og’riq paydo bo’layotganidan shikoyat qilgan. Hozirgacha aholidan 19 ta rasmiy murojaat kelib tushgan. Ularning barchasi aynan ushbu mahsulot turiga tegishli ekanini bildirgan.



MILLAT OYDINLARI

Yaqin tarixning og'riqli, kam o'rganilgan sahifalarida qatag'on qurbonlari haqidagi ma'lumotlar tobora oydinlashib borayotir. XX asrning 30-yillarida minglab o'zbek ziyolilari, ma'rifatparvarlar qatorida asossiz ayblovlar bilan fojialar qurboniga aylangan jadidlardan biri Mannon Ramziy bo'ladi.

Bu nom ilk bor mustaqillik yillarida tadqiqotchilar e'tiboriga tusha boshladi. 2009-yili G'afur G'ulom nashriyotida chop etilgan "Tarixning noma'lum sahifalari. Hujjat va materiallar. Birinchi kitob" to'plamidan o'rin olgan tarix fanlari doktori Qahramon Rajabov maqolasida Ramziy haqida ayrim ma'lumotlar keltiriladi. 2012-yili "Sharq" nashriyotida bosmadan chiqqan "O'zbekistonda sovetlarning qatag'on siyosati va uning oqibatlari (Birinchi kitob)" asarida uning hayotiga teranroq nazar tashlanadi.

Ayni paytda ushbu ikki manbadan boshlangan sa'y-harakatlar orqali Mannon Ramziy shaxsiyati, faoliyati va fojiali qismati haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati yuzaga keldi. Boshqacha aytsak, ilmiy tadqiqotlar va arxiv manbalari asosida uning hayoti tarix sahifasiga qayta yozilmoqda.

Mannon Ramziy 1896-yili Samarqand shahrida dunyoga kelgan. Ayrim manbalarda uning Toshkentda tug'ilgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Har ikki shahar o'z davrida Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligi tarkibida bo'lgan bo'lsa-da, ma'naviy jihatdan mustaqil yashagan, bilim va taraqqiyot markazlari sifatida tanilgan. Shu jihatdan qaraganda, Ramziyning bolalik muhiti qaysi shaharga to'g'ri kelishidan qat'i nazar, uning fikr va tafakkuri jadidlik ruhi bilan sug'orilgan muhitda shakllanganini taxmin qilish qiyin emas.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand va Toshkent jadid maktablari keng ommani savodli qilishga bel bog'lagan paytlar edi. Shaharlarda Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa ma'rifatparvarlar ta'sis etgan yangi uslubdagi maktablar faoliyat olib boradi.

Rasmiy maktab yoki madrasada o'qigan alohida qayd etilmagan bo'lsa-da, Ramziyning keyinchalik davlat va jamoat ishlarida, matbuot va ta'lim sohalarida tutgan o'rni, o'z davridagi murakkab masalalarga



MANNON RAMZIY

teran yondashuvi uning puxta bilimga ega shaxs bo'lganini yaqqol tasdiqlaydi.

Mannon Ramziy 1918–1930-yillarda partiya va davlat idoralarida ishlab, o'zini yuksak salohiyatli, tashabbuskor va ishonchli kadr sifatida namoyon etdi. 1922-yili u Toshkent shahri Eski shahar ijroiya qo'mitasiga rahbar etib tayinlanadi. Tabiiyki, bu lavozim o'sha yillarda hududdagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni to'g'ri boshqarishni talab qilardi. Aynan ana shu ishonch va salohiyat 1924-yili qahramonimizni yanada mas'uliyatli vazifa – Pomirga xizmat safariga yuborilishiga asos bo'ladi. Shu tariqa Ramziy butunlay boshqa dunyoqarash, boshqa madaniyat, boshqa turmush tarziga ega jamiyat ichiga kirib boradi. U mahalliy aholi orasida ta'lim masalasini kun tartibiga olib chiqqan ma'rifatparvarlardan biridir. Pomirda o'rtirgan tajriba Ramziyning keyingi faoliyatiga, ayniqsa, ta'lim va maorif sohasidagi ish uslubiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Mannon Ramziy jamiyatda yangi-chi fikrlash tarzini shakllantirish, ijtimoiy o'zgarishlarni tushuntirish va muammolarni ochiq yoritishda matbuotni asosiy vosita sifatida ko'radi. 1927–1929-yillar oralig'ida "Turkiston", "Kambag'al dehqon", "Qizil O'zbekiston" gazetolari, shuningdek, "Yer yuzi" va "Maorif va o'qituvchi" jurnallarida muharrir

sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bu nashrlar o'z davrida jamoatchilik uchun asosiy axborot manbayi hisoblangan. Arxiv materiallarida Ramziyning maqolalari muntazam chop etilgani, ularda ta'lim, madaniyat va ma'rifat sohalariga oid masalalar muhim o'rin egallaganini kuzatamiz. U o'z chiqishlari orqali el orasida o'ta kuyunchak, boshqaruv salohiyatiga ega rahbar va muammoni amaliyotda hal qilish qobiliyatini o'zlashtirgan shaxs sifatida tilga tusha boradi.

Aynan matbuot orqali namoyon bo'lgan ushbu malaka natijasida 1927-yili Mannon Ramziy O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligiga tayinlanib, ta'lim rivojiga katta hissa qo'shadi.

Biroq uning mustaqil qarashlari siyosiy ayblovlar bilan to'qnash kelib, 1930-yilning 1-sentyabr kuni "Narkompros ishi" deb nomlangan soxta ayblovlar to'plami asosida hibsga olinadi.

Hujjatlarga ko'ra, Ramziy 1933-yil 31-martda Moskvada o'tkazilgan yopiq sud majlisida dastlab to'qqiz nafar ayblanuvchi qatorida o'lim jazosiga hukm qilinadi. Bir necha oy o'tib, hukm qayta ko'rib chiqiladi. O'lim jazosi 10 yil ozodlikdan mahrum etish bilan almashtiriladi. Ayrim manbalarda qayd etilishicha, bu qaror O'zSSR KP(b) Markaziy Komiteti birinchi kotibi Akmal Ikromovning shaxsiy aralashuvi bilan amalga oshiriladi. Mana shu

holatning o'ziyoq Ramziyning maorif sohasidagi beqiyos mavqeyi va mehnatidan darak beradi.

1934-yilda ozod qilingach Ramziy yurtga qaytish imkonsizligi bois Rostov-Don shahriga jo'natiladi. O'sha yerda u "Rostselmash" zavodida kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i lavozimida ish boshlaydi. Chetdan qaraganda, uning bilim va tajribasiga yana ishonch bildirilgandek tuyulsa-da, bu ishonch ortidagi o'yinlar ko'p o'tmay ayon bo'la boshlaydi.

1937-yil 17-avgust kuni O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligidan kelgan xatga asosan Mannon Ramziy tag'in hibsga olinadi. Turar joyi tintuv qilinib, soqchilar kuzatuvida Toshkent shahriga, ichki ishlar xalq komissarligi ixtiyoriga jo'natiladi. Tergov hujjatlarida Ramziy "Milliy istiqlo" tashkiloti a'zosi sifatida tilga olinar ekan, bu tashkilotning mavjudligi, maqsadi va tarkibi haqidagi ma'lumotlar yozma guvohliklar orqali shakllantirilib, unga ko'ra, Ramziy Botu, Oltoy va boshqa shaxslar bilan birga sovet hokimiyatiga qarshi faol kurash olib borgan deb ko'rsatiladi.

Uning faoliyati, hatto bir paytlari yozgan maqolalari, matbuotdagi ilg'or chiqishlari – hamma-hammasi kutilayotgan hukm uchun yetarli dalil o'laroq sinchiklab ko'rib chiqiladi. Milliylikka oid har qanday fikri "millatchilik" deb baholalanib, tanqidi

"aksilinqilobiy harakat" sifatida hujjatga tikiladi.

To'g'ri, mazkur tergov jarayoni Mannon Ramziy uchun ilk sinov emas edi. Bunga qadar "Narkompros ishi" ortidan bir bora o'lim yoqasidan qaytgan qahramonimiz ma'lum bir muddat shaxsiy hayotini yo'lga solishga urindi, ammo bu galgi tergovda uning ustidan yog'dirilgan soxta ayblovlar Ramziyni o'lim changalidan olib qololmadi.

1938-yil 27-aprelda Moskvadagi yopiq sud majlisida Ramziy RSFSR Jinoyat kodeksining 58–1a, 58–7, 58–8 va 58–11-moddalari asosida aybdor deb topiladi. Sud majlisiga guvohlar chaqirilmaydi, himoyachilarning ishtirok etishiga ham yo'l qo'yilmaydi. Hukm o'sha kuniyoq chiqarilib, Mannon Ramziy otib tashlanadi.

Oradan yigirma yil o'tib, 1956-yil 26-sentyabrda Mannon Ramziyning rafiqasi Tursunoy Ramziyeva SSSR Bosh prokurori nomiga ariza yo'llaydi. U o'z murojaatida umr yo'ldoshiga nisbatan chiqarilgan qaror yuzasidan adolatli yechim so'raydi. Arizada uning partiyaga sadoqati, jamiyat oldidagi xizmatlari va ma'rifatparvarlik faoliyati haqida yozar ekan, "o'zbeklar orasidagi birinchi ma'rifatchi kommunistlardan biri", deydi.

Hayot yo'lini halol yashab o'tgan insonning ismini oqlashga urinish so'rovi javobsiz qoladi. Xullas, Mannon Ramziy o'z taqdiri misolida butun bir tarixiy avlodning kurash va intilishlarini ifodalagan shaxsdir. U jadidlar safida istiqlol g'oyalari, ta'lim, ma'rifat va milliy qadriyatlar uchun faol xizmat qilgan. Uning hayoti va faoliyati bugungi kun uchun xotira emas, tom ma'noda o'rganish, tahlil va xulosa chiqarish manbayi hamdir.

Ramziyga oid ma'lumotlar orasida hali to'liq ochilmagan, tadqiqotalab sahifalar bisyor. Shu bois agar kimda kim Mannon Ramziyning farzandlari, qarindoshlari yoki u haqidagi yangiliklarga ega bo'lsa, "Jadid" gazetasi tahririyati yoki Andijon davlat universiteti qoshidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyiga murojaat qilishini so'raymiz. Bu borada siz-u biz qo'shadigan har qanday hissa va ulush tarixiy adolatni tiklash yo'lidagi umumiy mas'uliyatimizdir.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi.
Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Abdullajon Juvonmardiyev – 1892-yili Qo'qonda tug'ilgan. Millati o'zbek. "Ali" madrasasini bitirgan. U sud himoyachilari kollegiyasining a'zosi bo'lgan. 1921-yildan "Milliy ittihad" tashkilotiga a'zo bo'lgan Abdullajon Juvonmardiyev jadidlar bilan hamkorlikda savodsizlikni tugatish maktablarini tashkil etgan va maktablarda dars bergan.

Oliy sud raisi Sa'dulla Qosimov va Bosh prokuror Shamsitdin Badriddinov bilan yaqindan aloqada bo'lgani holda Abdullajon Juvonmardiyev yer mulki musodara qilinayotgan va surgun etilayotgan "boy-quloq"larning qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qilgan. Ularni jazodan qutqargan.

Shuningdek, Kaganovich rayonida 12 nafar insonni muqarrar jazodan saqlab qolgan. Abdullajon Juvonmardiyev 1937-yil 29-avgustda hibsga olinib, shu yilning 21-noyabrda 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm qilindi. Jazo muddatini o'tab qaytgach, 1949-yil 24-iyunda qayta hibsga olingan. 1949-yil 17-dekabr kuni umrbodiyashashga Krasnoyarskiyga surgun qilinadi. U 1957-yil 28-yanvarda reabilitatsiya qilingan. Abdullajon Juvonmardiyev 1978-yil vafot etgan.

Ne'matjon Og'aliquov – 1877-yili Qo'qonda tavallud topgan. "Turk adam markaziyat" partiyasining faol a'zosi bo'lgan. 1918-yil Turkiston muxtoriyatini tashkil etishda faol qatnashgan. 1920-yil "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi bo'lgan Ne'matjon Og'aliquov 1937-yil 21-noyabrda "uchlik" hukmi bilan 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga yuboriladi. U 1957-yil 28-yanvarda reabilitatsiya qilingan.

Yunusxonxo'ja Og'aliquov – 1884-yili tug'ilgan. Millati o'zbek. Qo'qon shahrida yashagan. "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi bo'lgani uchun 1926-yilda 7 yil muddatga surgun qilingan. 1934-yil surgundan qaytib kelgach, "kolxozlarda bug'doy yo'qligi, ocharchilik hukm surayotganligi, odamlar sovet davlatining yolg'onlaridan norozi..." deb aytganlikda ayblanib, 1937-yil 21-noyabrda otuvga hukm qilingan. Jazo 1937-yil 18-dekabrda amalga oshirilgan. Yunusxonxo'ja Og'aliquovni 1957-yil 28-yanvarda reabilitatsiya qilishadi.

Kattaxo'ja Boboxo'jayev – 1892-yili Qo'qonda tug'ilgan. Millati o'zbek. Taypaq qishlog'ida sovet hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan tashkilotga rahbarlik qilgan. Milliy istiqlol uchun kurash yillarida Eshmat qo'rboshining o'rinsbosari, keyinchalik Madali qo'rboshining "ponsod'i" bo'lgan. Uning boshchiligidagi milliy istiqlol kurashchilari Sirdaryo qirg'og'i Oqjar hududidagi Qorashahar nomli tekislikkacha bo'lgan hududda nazorat o'rnatgan edi.

Qo'zg'olon ko'tarishga uringani uchun Kattaxo'ja Boboxo'jayev 1937-yil 4-dekabrda otuvga hukm qilingan. Hukm 1937-yil 28-dekabrda ijro etilgan. Oradan yillar o'tib, 1962-yil 29-martda Kattaxo'ja Boboxo'jayev reabilitatsiya qilingan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).

MUTOLAA

BAHROMBEEK TARJIMON KIM BO'LGAN?

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Sirojiddin Ahmad Bahrombek Tarjimonga bag'ishlangan yangi asarni kitobxonlarga taqdim etdi. Olim Bahrombek Tarjimoning P-32607-raqamli "Jinoiy ishi" va arxiv materiallari asosida ma'rifatparvarning tarjimai holini tiklagan hamda "Milliy ash'ori Tarjimon" to'plamini to'liq tabdil qilgan.

Bahrombek Tarjimon (Davlatshoyev) 1871–1933-yillarda yashagan o'zbek ziyolisi, sho'ir, yozuvchi va tarjimon. Ne'matullo Muhtaranning "Tazkirat ush-shuaro" asarida yozishicha, "Tarjimon – til shevasining andalibi va so'z bo'stonining xazordostoni (bulbuli) kattaqo'rg'onlik Bahrombekning taxallusidir". Po'latjon Domulla Qayyumiy esa "Tazkirayi Qayyumiy" asarida "Tarjimon – bu kishi buxorolik bo'lub, nomi Mulla Bahrombek Davlatshoh o'g'lidur. Eshitishimizcha, Amir Abdulahadxon saroyida ruschag'a tarjimon va xatlar, aloqalar ustida mudir sifatida turar emish. Bu kishi Buxoroga so'ngra borgan bo'lsa kerakdur. Jadidizm jurnallarida ilm olish to'g'risida o'tliq, afsunali ilmg'a targ'ib etib yozg'an ash'orlari bo'lur edi. 1910-yillardan boshlab shuhrati ko'ruldi..." deydi.

Bahrombek Tarjimon dastlab Abdurazzoq Salimboyev qo'lida mirzalik qilgan. Keyinroq Buxoro qushbegisiga tarjimon bo'lib ishga

kiradi. To'rt yil o'tib qushbegi uni amir devoniga o'tkazadi. Shu tariqa 1898-yildan boshlab Abdulahadxon va Amir Olimxon saroyida tarjimonlik qiladi. Amir Abdulahadxon "qorovulbegi" unvoni bilan taqdirलगach, ismiga "bek" sifati qo'shiladi.

Bahrombek Tarjimon 1917-yilgacha amirlik devonida tarjimonlik bilan shug'ullangan. Mart oyida Turkiston XKS raisi F.Kolesevnning amirlikka qarshi bosqini davrida sovetlarga qarshi tashviqot olib borgan. Ammo o'sha voqeadan so'ng amirlik tomonidan "Yosh buxoroliklar" harakati bilan aloqadorlikda gumon qilingan. Natijada Buxoroning tog'lik qishloqlaridan birida maxfiy yashab, imomlik qilgan.

U 1920-yilgi inqilobdan keyin Buxoro Xalq Jumhuriyatida, Fayzulla Xo'jayev hukumatida dastlab tergovchi, so'ng hukumat idoralarida turli lavozimlarda ishlagan. Ammo "sovet hukumatiga qarshi kishi" sifatida ayblanib, qamoqqa olingan. 1923-yilda qamoqdan chiqarilgach, Kattaqo'rg'onga kelib, ota hovlisida yashab, shahar moliya bo'limida ishlagan. Yaqinda qamoqdan chiqqaniga qaramay, Bahrombek Tarjimon Kolesev voqealariga qarshilik ko'rsatishda qayta ayblanib, 9 oyga barcha siyosiy va ijtimoiy huquqlardan mahrum qilingan.

Bahrombek Tarjimon 1929-yil 1-sentyabrda o'tkazilgan tergovda e'tiqodiga ko'ra, barcha millatlar o'z taqdirini o'zi belgilashi tarafdori, erkin taraqqiyparvar ekanligi, kompartiyani



qo'llamasligini, Orenburgda chop etiladigan "Vaq" gazetasida muxbir bo'lganligi va bularning barchasi ularning gumoniga sabab bo'lganini ta'kidlaydi.

Qamoqqa olish vaqtida uning uyidan ikki jildlik qo'yozma asarlari, 98 dona turli yozishmalar, 2 dona surat, kundalik, 2 dona yondafter, son-sanoqsiz kitob, 1910-yilda chop etilgan "Milliy ash'ori Tarjimon" she'riy to'plami, amir Olimxon saroyi hayotiga oid 1925-yilda yozilgan "Mustabidning haykali va fahsh o'chog'i" nomli asari, Buxoro amiri Abdulahadxonning bir ayol tufayli ikki mulozim taqdirini nohaq hal qilganiga bag'ishlangan "Ikki taqdir" sarlavhali tugallanmagan romani musodara qilingan.

Afsuski, Bahrombek Tarjimon ham davr qurboniga aylanadi. Kamiga u 1906-yilda "Taraqqiy" gazetasida bosilgan maqolasida ayrim din vakillarini keskin tanqid qilgan edi. Shu bois ko'p ulamolar ham uni

yomon ko'rishar, dinsizlikda ayblab, jazolanishini talab qilishardi. Natijada Bahrombek Tarjimon 1929-yilning 13-sentyabrda o'tkazilgan tergovdan so'ng qamoqqa olingan va 1930-yilning 23-aprelda besh yil muddatga Shimol o'lkalariga surgunga hukm qilingan. U aybsizligini isbotlash, hech bo'lmasa ahvolini yengillatish, jazo muddatini kamaytirishni so'rab, "...Biz qanday gunoh uchun bunday jazo olganimizni bila olmaymiz", deya Fayzulla Xo'jayev nomiga ariza yo'llaydi. Taassufki, bu murojaatning manziliga yetib borishiga yo'l qo'yilmaydi. Oqibatda 1933-yilda qahramonimiz sovuq o'lka qamoqxonasida vafot etadi.

Bahrombek Tarjimon o'z davri-ning mutafakkirlari, millat xodimlari bo'lmish Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov va tataristonlik Abdurashid qozi Ibrohim, Muso Jorulloh, Fotih Karimiy va turk, ozarbayjon adib-u shoirlarining ta'sirida ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar sababli hayotga tanqidiy nazar bilan qarash, millatni uyg'oq holda ko'rishni istadi.

U she'riyat va publitsistikada barakali ijod qildi. "Sho'ro" jurnalida bosilgan she'rlari, "Milliy ash'ori Tarjimon" to'plami buni tasdiqlaydi. U Turkiston xalqining haq-huquqlari poymol etilayotganligiga jim qarab tura olmadi. O'sha davrda ovrupaliklar va ruslar orasida "musulmonlar – qoloq xalq" degan fikr mavjud edi. Bahrombek Tarjimon

Xoliyor SAFAROV



TANLOV

“Jadid” gazetasi 2025-yil 20-iyun 25-sonida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda “Dolzab 90 kun” loyihasi doirasida maktab o'quvchilari orasida Vatanga mehr-muhabbat va sadoqat, milliy qadriyat va an'analarimizga hurmat tuyg'ulari tarannum etilgan, shuningdek, ma'rifatparvar jadidlarning ibratli faoliyatini mustaqil tahlil va talqin qilishga bag'ishlangan



“JADID BOBOMGA MAKTUB”

ijodiy insho tanlovi e'lon qilingan edi.

24-iyul holatiga ko'ra, tanlovga jami 16 760 ta insho kelib tushdi va bu ko'rsatkich kundan kunga oshib bormoqda. Tanlov butun respublika bo'ylab katta qiziqish uyg'otdi va barcha hududlardan yoshlar faol ishtirok etmoqda.

Quyidagi jadvalda tahririyatimizga yo'llangan maktublarning hududlar bo'yicha taqsimoti bilan tanishing:

HUDUDLAR KESIMI BO'YICHA:

Farg'ona	3 734
Namangan	2 587
Navoiy	2 518
Samarqand	1 906
Toshkent sh.	1 352
Andijon	1 016
Buxoro	930
Surxondaryo	640
Toshkent vil.	611
Qashqadaryo	511
Qoraqalpog'iston Res.	345
Xorazm	337
Sirdaryo	154

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda hozirda 10 460 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi faoliyat yuritmoqda. Ularda jami 7,4 milliondan ortiq o'quvchi tahsil olmoqda. Aslida, mazkur tanlovni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad maktab o'quvchilarida milliy g'urur, tarixiy ong va badiiy tafakkurni rivojlantirish; jadid ma'rifatparvarlarining hayoti, faoliyati va merosini o'rganishga qiziqishni kuchaytirish; ijodiy

Murojaat uchun:
(77) 199-22-10;
(95) 795-75-09;
@jadidtanlovi_bot

MULOHAZA



“Menga yoqdi”, “Unga ham yoqdi”, “O'h-ho! Juda ko'p odamga yoqibdi”... Ijtimoiy tarmoqlarda bu kabi xulosalar uchun “poyga” boshlanib ketganiga ancha bo'ldi. Ammo “Nima yoqibdi?”, “Kimga yoqibdi?”, “layk”chilarning saviyasi qanday? degan savollar, afsuski, javobsiz...

Tarixan qaysidir g'oya va maqsadlarni yuzaga chiqarish yoki siyosiy jarayonlardagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun olomonchilik kayfiyatidan ustomonlik bilan foydalanilgan. Hozir ana shunday toifaning qiziqishlaridan kelib chiqib, mediamahsulotining ijtimoiy-ma'naviy zarari, g'ayri-axloqiy jihatlarini anglamagan holda ko'ngilxushlik va “layk” ishqibozligi ortidan pul topayotganlar ham bor. Men bunday kimsalarni ko'r-ko'rona jarlik tomon borayotgan, ortidan o'z yaqinlari, boshqalar va kelajak avlodni ham ergashtirib ketayotgan manqurtlarga o'xshataman.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bir videolavha tarqaldi. Kelinchak tor-tanqis, ochiq-sochiq ko'ylakda boyvachcha qaynotasiga mastonavor choy uzatyapti. Qaynota ham ko'cha ko'rgan, yengiltak kelin bilan tezgina til topishdi. Xo'sh, nima bo'пти, oddiy video-ku, deyishingiz mumkin. Yo'q, axir o'zbek xonadonida kelin qiz, qaynota ota o'rnida emasmi? Qaysi es-hushi joyida bo'lgan padar farzandining jufti haloliga bunday shum nazar bilan qaraydi?

Aslida bunday lavhalar orqali milliy mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan, millat sha'niga isnod keltiruvchi shoular yaralmayaptimi? To'g'ri, kimdir bu epizoddan yoqa ushladi, yana kimdir malomat qildi, boshqa birovlar esa G'arbning ta'siri ekanini ta'kidladi. Tomosha esa katta kontentda hamon ko'riyapti. Uni ijtimoiy tarmoq



SHOXIGA URSANG, TUYOG'I ZIRQIRAYDI

sahifalariga joylaganlar “prosmotr” soni oshayotganidan xursand, ammo... Bizni tashvishlantirayotgan asosiy gap – shu zayl ommani axloqsizlikka ko'niktirib borayotganimiz. Avvaliga odamlar bunday holatlarga, albatta, tanqidiy ko'z bilan qaraydi, keyin “ilgari ham shunaqasini eshitgandim” deydi, bora-bora oddiy hol bilib, qo'l siltab qo'ya qoladi. “Gapiraversang beti qotadi”, degan gap bekorga emas-da...

Bu kabi epizodlarni suratga olayotganlar va uni moliyalashtirayotganlar aynan nimani ko'zda tutishadi o'zi? Bugun ommaviy kommunikatsiya targ'ibot va tashviqotning juda katta kanaliga, kuchiga aylangani rost. Mediamahsulotlar va ularning turlari ham shu qadar ko'pki, barchasini nazorat va tahlil qilishning iloji yo'q. Hech bo'lmasa, kelajagimiz davomchilari bo'lmish bolalarimiz uchun maxsus tayyorlanayotgan kichik videolavhalar, multiplikatsion filmlarning ham ular tarbiyasi, dunyoqarashi va g'oyalarga qay darajada ta'sir ko'rsatishini o'rganib bo'lmay qoldi.

Bir qaraganda duppa-durust film namoyish qiliyapti, ammo qaysidir joyiga kelganda yoshgina qiz va mushtumday bolakayning o'pishgan sahnasi chiqib qoladi. Yoki ba'zi multfilmlarda qizaloqlarning labchalari cho'chchaytirib bo'yalgani, bolachalarning tanalarini ko'z-ko'z qilib o'tishlari ko'rgan farzandlarimiz o'zlarining kelgusi qiyofalarini qanday shakllantiradi? Roz ustiga, bu kabi qahramonlar ijobiy bollar orqali namoyon bo'lgan bo'lsa... Multfilmdagi voqealar rivoji esa rostdan ham qiziq, gohida kattalarni ham o'ziga tortadi.

Biz, kattalar voqealar ortidan ketaveramiz-u, ularning zamirida yashiringan va bolajonlar ongiga singdirilayotgan “kiyinish madaniyati” va imi-jimida sizdirilayotgan fahsh g'oyalarga e'tibor berishni unutib qo'yamiz. Shunday,

asosiy g'oya hamisha orqa fonda, sahna ortida yoki qiziqarli voqealar chulg'amiga o'ralib, “yashirin” tarzda ko'zga ko'rsatilib, ongga o'rmashtiriladi.

Ma'lumki, xalqimiz hayotida asrlar bo'yi jamoaviylik hissi ustun bo'lib kelgan. Bu – birovning bolasi, bu – menga begona, degan qarashlar xalqimizga xos bo'lmagan. Keksalar ko'cha-ko'ya ham bolaman deganini kerak joyda tergap, o'rni bilan tarbiyalab ketavergan. Ular ijtimoiy axloq me'yorlarini, tarbiya asoslarini shu tariqa asrashgan. Bugun biz ham mediamahsulotlarning ma'naviy mohiyatini kuzatib borishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishimiz lozim.

Ahli ilm yoki ijod vakillarining kuza-tuvchilari va ularning postlariga qo'yilgan “layk” belgilari aysh-u safo sahnalari aks etgan lavhalaridan yuzlab barobar kam. Bu esa jamiyat uchun xavfli bo'lgan holat – omma didi o'tmaslashib borayotganidan darak beruvchi jiddiy xatardir. O'zi o'sha omma ham aslida biz, bizning yaqinlarimiz, bolalarimiz. Agar bunday postlarni kuzatmasak va e'tibordan chetda qoldirsak, eng muhimi, farzandlarimizning media didini, media ehtiyojini to'g'ri tarbiyalay olsak, bu ommaviy didni oshirishning muhim bir bosqichi bo'ladi. To'g'ri, bu oson emas. Negaki, ko'rma degan narsani ko'rish, olma degan narsani olish – odamzod tabiatiga xos. Demak, tarbiya usullarini ham, ijtimoiy tarbiya tizimini ham shundan kelib chiqib yaratishimiz va amalga oshirishimiz lozim.

Xullas, shov-shuv yaratayotgan va milliy qadriyatlarimiz o'zagiga chang solayotgan mediamahsulotlar zamiridagi ma'naviy buzuv g'oyalardan ogoh bo'lish – millat kelajagi uchun qayg'urish demakdir.

Kamoliddin TO'RAYEV,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

YANGI NASHR

DARD VA G'URUR MUJASSAM

Toshkent shahri, 21-iyul. G'alaba bog'ida o'z hayotini yurt himoyasiga baxshida etgan, xalqimiz tinchligi va davlat mustaqilligi uchun jon bergan 23 nafar askar va zobit xotirasiga bag'ishlangan “Yelkamda Vatanning yuki bor” nomli kitob-albomning ilk taqdimot marosimi bo'lib o'tdi.

Mazkur kitob-albom O'zbekiston Mudofaa vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tashabbusi bilan tayyorlangan bo'lib, unda Vataniy himoyasi, el osoyishtaligi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan fidoyi harbiylarning hayot yo'li, xizmat faoliyati, oilasi, orzulari, mehnatsevarligi va jasorati tafsilotlari maqola, she'r, suratlar orqali aks ettirilgan.

Taqdimotda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, senator Sirojiddin Sayyid, Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov, Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari Hamdam Qarshiyev, Vatani uchun jon bergan askar va zobitlarning ota-onalari, oila a'zolari, ijodkorlar, harbiylar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

– Mamlakatimizda nafaqat o'tgan asrlardagi, balki yaqin tariximizda Vatani uchun jon bergan shahidlarni xotirlash, ularning hurmatini joyiga qo'yish davlat siyosati darajasida olib borilmoqda. Inson qadri g'oyasi ham aslida mana shudir. Zero, yurt xavfsizligi va millat tinchligi yo'lida o'z jonini qurbon qilgan



bu yigitlarni unutishga haqqimiz yo'q, – dedi Otabek Hasanov.

Tadbirning eng hayajonli lahzalari, shubhasiz, shahidlarning ota-onalari so'z olgan payt bo'ldi. Har bir ona o'z farzandining orzu-umidlari, bolaligidayoq bo'y ko'rsatgan ezgu fazilatlar, xizmatga kirgach, shakllangan fe'l-atvori, sabr-toqati va oilaga e'tibori haqida faxr bilan so'z yuritdi. Ularning so'zlarida dard va g'urur mujassam edi.

Taqdimotning badiiy qismida taniqli san'atkorlar tomonidan Vatani, ona, sadoqat, jasorat mavzularini o'zida mujassam etgan she'r va qo'shiqlar ijro etildi.

Mazkur kitob-albom Yangi O'zbekiston yoshlarida vatanparvarlik, fidoyilik va shukronalik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'z muxbirimiz.

TILBILIM

BO'RBOY

“Bo'rboy” (“bo'rbay”, “bo'rvay”) degan so'zni eshitganmisiz? Bu so'z izohli lug'atda yo'q, demak, adabiy tilda ham yo'q, lekin shevalarda bor, shuning uchun “O'zbek xalq shevalari lug'ati”da bor.

Xo'sh, “bo'rboy” nima? Adabiy tildagi “boldir” bilan aynan bir ma'noga ega, ya'ni oyoq tizzasi yoki taqimdan to'piqqacha bo'lgan qismi ba'zi shevalarda “bo'rboy” deb ataladi.

Kimdadir “taqim nima?” degan savol ham tug'ilishi mumkin, “taqim – oyoqning tizza osti bukiladigan joyi”, ekanligi izohli lug'atda qayd etilgan. Bu so'z “taqmoq” fe'lidan yasalgan, misol: “chavandoz uloqni taqimiga bosdi” yoki “qizning sochi taqimiga tushadi”. Lekin “taqim” ham keyingi paytlarda “uzun soch” bilan birga unutilib bormoqda.

“Boldir” so'zi suyukka nisbatan ham ishlatiladi: “boldir suyagi”, “son suyagi”, lekin “bo'rboy” – ko'proq etga, payga nisbatan: “Maxsi tor ekan, bo'rboyimni siqdi”. “O'zbek xalq shevalari lug'ati”da Shahrisabz shevasidan ushbu misol keltiriladi: “bo'rvayimdek keladda man ko'rgan ilon”. Jizzaxda esa “bo'rbay” deganda “taqim” tushunilar ekan: “uloq chovganda burbayga qisati” (O'XSHL.T.1971.54).

“Boldir”dan farqli o'laroq, “bo'rboy” shevada yana oyoq kiyimga nisbatan “qo'nj” ma'nosida



ham ishlatiladi: “bo'rboyi uzun etik” – “qo'nji uzun etik”, “bo'rboyli botinka” – “qo'njli botinka”, “bo'rboyi kalta etik” va hokazo.

“Bo'rboy” aslida mo'g'ul tillaridan turk tillariga o'zlashgan, degan qarash ustuvor, chunki “Mo'g'ul tillari etimologik lug'ati”da ham: “xalxacha: borbi – “tovon paylari; buryatcha: “borbo” – boldir; qalmiqcha: “berv” – boldir paylari, taqim”, – deb izohlangan (ESMYA.I.M.2015.98). Shuningdek, XIII asr obidasi, eski mo'g'ul tilida Chingizxon tarixi bitilgan va keyinchalik “Mo'g'ullarning yashirin tarixi” deb nomlanib ketgan asarning 255-paragrafida ham bu so'zga “boldir” ma'nosida – “borbi” shaklida duch kelamiz (“borbin-iyen kinggürü çabçildusu”).

Biroq bu so'z faqat mo'g'ul tillarida emas, balki aksariyat turk til va lahjalarida ham mavjud bo'lib, garchi tananing turli a'zolariga nisbatan

ishlatilsa-da, ko'proq “pay”, ya'ni “birlashtiruv to'qima” ma'nosiga ega. Misol uchun, qozoq va qirg'izlarda bu so'z – “borpay” shaklida “chov” ma'nosida; oltoy, yoqut, qo'miq, no'g'ay, boshqird tillarida: “pay”, “birlashtiruvchi to'qima”, “son”, “taqim” kabi ma'nolarga ega ekan. Hatto, bu so'z usmonli turkchasining ba'zi shevalarida ham bo'lib, “qo'lning bilagi” ma'nosini bildirarkan (ESTYA.II.194). Ammo “Devonu lug'otit-turk” yoki “Qutadg'u bilig” kabi manbalarda “bo'rboy” so'zi uchramaydi.

Alqissa, bu so'zning turk tillarida ham “bo'rboy”, “borpay”, “porbuy” kabi shakllarda mavjudligi va ko'proq “pay” ma'nosini bildirishi va shaklan ham “pay”ni eslatishi, uning kelib chiqishi mo'g'ulchaga emas, balki oltoy yoki prototurk tilidagi qadimgi umumiy o'zakka borib taqalishi mumkin, degan farazga ham olib keladi.

Abduvohid HAYIT

Jadid

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI



“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19 175

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 497

Lotin yozuvida – 11 678

Media kuzatuvchilar – 87 776

Buyurtma: G – 740.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz